



ISBN 978-83-68188-25-7

Yunusova Kamola Baxodirovna

**SAMARQANDNING ESKI SHAHAR
QISMIDA KAM QAVATLI
TURAR-JOYLAR (MAHALLA)
JAMOAVIY MUHITINI
ME'MORIY-LANDSHAFT
TASHKILLASHTIRISH**

Monografiya

 **iScience**

Warsaw, Poland - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA–QURILISH UNIVERSITETI

Yunusova Kamola Baxodirovna

**SAMARQANDNING ESKI SHAHAR
QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-
JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY
MUHITINI ME’MORIY-LANDSHAFT
TASHKILLASHTIRISH**

Monografiya

Warsaw - 2025

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy kengashining qarori bilan (№ 1-son bayonnoma, 29 avgust 2025 yil) nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

Mustayev B.B. – *arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);*

Toshtemirova A.R. – *“Modern architecture and Building” MCHJ direktori.*

Yunusova K.B. Samarqandning eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar (mahalla) jamoaviy muhitini me'moriy-landshaft tashkillashtirish. [Matn]. Monografiya – Warsaw: iScience Sp. z.o.o. – 2025. – 82 p.

Ushbu monografiyada O‘zbekiston Respublikasi jumladan Samarqand shahridagi tarixiy mahallalar jamoaviy muhitini o‘rganish va ularni me'moriy landshaft tashkillashtirish yo‘llarini ilmiy tadqiq etish, tarixiy hududidagi mahalla markazlarining ilk shakllanishidan boshlab amalga oshirilgan me'morchilik va shaharsozlik, landshaft obyektlarini o‘rganish, umumlashtirish asosida ularni loyihalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va loyihaviy takliflar berish haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

В данной монографии проводится исследование коллективной среды исторических махаллях города Самарканда, в том числе Республики Узбекистан, и научное исследование способов организации их в ландшафтной архитектуры, изучение архитектуры и градостроительства, ландшафтных объектов, которые реализованы с момента первого образования махаллинских центров на исторической территории, освещены сведения о разработке научно-теоретической основы их проектирования и предоставлении проектных предложений на основе обобщения.

This monograph, the study of the collective environment of historical neighborhoods in the city of Samarkand, including the Republic of Uzbekistan, and the scientific research of ways of organizing them into an architectural landscape, the study of architecture and urban planning, landscape objects that have been implemented since the first formation of neighborhood centers in the historical territory, information about the development of the scientific-theoretical basis of their design and the provision of project proposals based on generalization is highlighted.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I-BOB. O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARSOZLIGIDAGI KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR, AN‘ANAVIY MAHALLALARNING O‘RNI VA LANDSHAFT MUHITI.....	9
1.1. Shaharsozlik muhitidagi mahalla markazlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi va tipologik shakllanishi	9
1.2. Samarqand eski shahrida kam qavatli turar-joylar tizimida jamoaviy muhit shakllanishining asosiy omillari	20
1.3. Kam qavatli turar-joy muhitining me‘moriy-rejaviy, hajmiy-fazoviy yechimi va jamoaviy markazlarni vizual qabul qilish	27
I-bob xulosasi.....	31
II-BOB. KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR (MAHALLA) TIZIMINING LANDSHAFTINI TASHKIL ETISH USULLARI	33
2.1. Kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining landshaft yechimlari	33
2.2. Samarqand shahrida kam qavatli turar-joylar tizimining mikroiklim muhitini tashkil etish usullari	39
2.3. Kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining badiiy-me‘moriy va landshaft xususiyatlarning estetik qadriyatlari	44
II-bob xulosasi.....	52
III-BOB. SAMARQANDNING ESKI SHAHAR QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY MUHITINI ME‘MORIY-LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR	55
3.1. Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me‘moriy-landshaftini rivojlantirishning asosiy talablari	55
3.2. Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me‘moriy-landshaft kompozitsiyasini muvofiqlashtirish tamoyillari	64
3.3. Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me‘moriy-landshaft muhitining zamonaviy ilmiy-loyihaviy landshaft yechimi bo‘yicha takliflar	66
III-bob xulosasi	70
XULOSA	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	77

KIRISH

Yurtimizda mahalla asrlar davomida shakllanib, o'tmishda u yoki bu ko'rinishda mavjud bo'lgan, lekin istiqloлга erishganimizdan keyingina uning ildizlari xalq an'analari va tarixan tarkib topgan jamoa munosabatlariga borib taqaluvchi institut sifatida munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda demokratiyani yanada qaror toptirishda mahalliy shart-sharoit, milliy urf-odat va an'analarni hisobga olmaslik mumkin emas. Bu borada, ayniqsa, mahalla tizimining xizmatini hyech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Binobarin, xalqning hokimiyatni boshqarishdagi ishtirokini aynan shu tizim orqali amalga oshirish demokratiya tamoyillariga to'la mos keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, mahalla xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'prik bo'lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo'lish mahallaning asosiy vazifasidir. Mahalla tom ma'noda "fuqarolik jamiyatining asosi", "davlatning zamini" va "ulug' qadriyatlarimizning beshigi" ga aylanib bormoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida barcha tuman va shahardagi jami 7 ming 794 ta qishloq va mahallalarda qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Shuningdek, ularda yashayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida qurilish, ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari bajariladigan qishloq va mahallalar soni bo'yicha maqsadli parametrlar tasdiqlandi.

Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi mamlakatimizning asosiy qonuniga kiritilib, uning konstitusiyaviy maqomi belgilab berildi. Mahalla institutining maqomini O'zbekiston Konstitutsiyasi darajasida mustahkamlanishining asosiy mazmun va mohiyati shundan iboratki, endilikda davlatning ijtimoiy siyosati tuman yoki shahardan emas, balki mahalladan boshlanadi. Chunki yangilangan Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston ijtimoiy davlat ekan, uning bu boradagi siyosati aynan mahalladan boshlanishi mantiqan to'g'ridir. Oxirgi yetti yilda mahalla institutini takomillashtirish davlatning diqqat e'tiborida bo'lib, bu borada o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki,

aynan mahalla tizimini takomillashtirishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Istiqlolga erishganimizga ham mana o'ttiz uch yil to'ldi. O'tgan qisqa davrda yurtimizda asrlarga tatigulik ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Barchamizning fahrimiz, g'urur va iftihorimiz bo'lgan istiqlol tenglar ichra tenglikni, hur va ozod hayotni, erkin, farovon turmushni, obod, barqaror jamiyatni in'om etdi. Inson manfaatlariga qaratilgan islohotlar zahirida bugunimiz, ertamiz, farzandlarimizning yorqin istiqboli o'z ifodasini topdi va topmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda har birimiz qaysidir yumush bilan mahallaga murojaat etamiz. Kimdir ishga kirish niyatida, yana boshqasi maslahat so'rab. Xullas, mahalla tizimi har birimizning kundalik hayotimizda, turmushimizda alohida o'rin tutadigan institutga aylanib bormoqda. Bu tizimning ildizlari aynan istiqlol tufayli xalq an'analari bilan chambarchas bog'liq holda obod maskanga aylandi. Obod maskan esa, xayrli ishlarning bardavom bo'lishi uchun ezgulik beshigi vazifasini o'tashi shubhasizdir.

Murakkab tarixiy shaharsozlikning qadr-qimmatlari va bizgacha saqlangan tabiatlar landshaftini o'rab olgan muhitlarning yaxshilanishi davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shaharni tashkil etish va amalga oshirish strategiyasining siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat siyosatining ekologiya va shaharsozlik sohasidagi bizgacha saqlangan milliy me'moriy madaniyati o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi uchun aholining sog'lig'i, siyosiy va ekologik tinchligi ajralmas bir butunlikda bo'lishi lozim.

Samarqand shahridagi tarixiy mahallalar jamoaviy muhitini o'rganish va ularni me'moriy landshaft tashkillashtirish yo'llarini tadqiq etishda bizga birinchi Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi "Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi. Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qorachig'iday asrab, landshaftni tashkil etish va amalga oshirish strategiyasining siyosiy-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak," deb aytgan so'zlari mazkur tadqiqotimiz gipotezasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelajakda mahalla markazining istiqboldagi rivojida shaharlar atrofi va qadimgi tarixiy mahalla turar-joylarini ijtimoiy o'zlashtirish konsepsiyasi yotadi. Bu masala bevosita mahalla jamoaviy muhitini

me'moriy-landshaft tashkillashtirish bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan mahalla markazlari va turar-joylari hududidagi mavjud holatning tahlili hamda jamoaviy muhitini me'moriy-landshaft tashkillashtirishga qaratilgan asosiy tamoyillar va vositalarni aniqlash dolzarb masala hisoblanib, muhim zamonaviy va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyektiga – Samarqand shahrining tarixiy qismida joylashgan mahalla markazlarining tarixan shakllanishidan hozirgi vaqtga qadar amalga oshirilgan me'morchilik va shaharsozlik sohasidagi amaliy ishlar kiradi.

Tadqiqot predmetiga – mahalla markazlarida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me'moriy tashkil etish usullari, ushbu muhitning o'ziga xos xususiyatlari, o'rtirilgan yutuq va tajribalar, kamchiliklarni bartaraf etish usullarini izlash va takliflar kiritishdan iboratdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mahalla markazlarida jamoaviy ahamiyatdagi muhitni me'moriy-landshaftini tashkil etish va amalga oshirish strategiyasini tashkillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, Samarqand shahri tarixiy hududidagi mahalla markazlarining ilk shakllanishidan boshlab amalga oshirilgan me'morchilik va shaharsozlik, landshaft obyektlarini o'rganish, ilmiy tadqiq qilish, bu sohada shakllangan me'moriy-landshaft uslublari va yo'nalishlarga xolisona baho berish asosida hamda mahalla markazlarining an'anaviy shakllanish yechimi negizida ularning kelajagi, zamonaviy me'morchiligi, landshafti va shaharsozlikdagi rivoji uchun kerakli vazifalarni belgilash.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun tadqiqotda quyidagi ilmiy vazifalar belgilangan:

- mahalla markazlarining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini o'rganish;

- kam qavatli turar-joylar (mahalla) jamoaviy muhitini me'moriy-landshaft tashkillashtirishni o'rganish va tadqiq qilish;

- hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechim usullarini tadqiq qilish;

- landshaft va mikroiklim muhitini o'rganish;

- mahalla tarkibiga kiruvchi bino elementlarida me'moriy-badiiy naqshu-nigorning qo'llanilishini tadqiq etish;

- mustaqillik davridagi ba'zi bir mahalla markazlarining tarkib va tuzilmalarini aniqlash va shu mahalla markazlari muhitini zamonaviy shakllanish yo'llarini tadqiq etish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Hozirgi vaqtda O'zbekiston tarixiy shaharlarining markazlari, ayniqsa mahalla

markazlari an'analarini qayta tiklash va shakllantirish, mahalla jamoaviy institutini shakllantirish bo'yicha hamda kam qavatli an'anaviy mahalla turar-joylarini modernizatsiyalash ishlari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar bajarilmoqda. Biroq, mahalla markazlari, guzarlar va kam qavatli turar-joylar landshafti va umuman mahalla jamoaviy shaharsozlik muhitini me'moriy-landshaft tashkillashtirish masalalari shu choqqacha ilmiy jamoatchilik va mutasaddi tashkilotlar e'tiboridan chetda qolmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqotning ilmiy farazi (gipotezasi) va asosiy ilmiy masalalari yuqorida qo'yilgan ijtimoiy muammo, ya'ni kam qavatli turar-joylarga ega bo'lgan mahalla jamoaviy muhiti va hududini me'moriy landshaftini tashkil etish va amalga oshirish strategiyasini tashkillashtirish orqali ushbu muhitda tabiiy sog'lom va toza ekologik muhit yaratish masalasi ilgari surilgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi (tahlili)

Tadqiqot mavzusi bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar va ishlar soni juda kam. Ana shunday ishlar qatoriga G.A. Pugachenkovaning "Архитектурные заметки" (1962), L.I. Rempelning "Далёкое и близкое" (1981), M.Q. Axmedovning "O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi" (1995), K.D. Raximovning "Махаллинские ансамбли" (1996), A.S. Uralovning "Архитектура yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash" (2002) kabi asarlari, monografiya va risolalari, maqolalari kiradi.

Me'moriy landshaftni tashkil etish va amalga oshirish muammolari L.I. Rempel, V.L. Voronina, V.A. Nilsen, G.A. Pugachenkova, I.V. Bestujeva, Yu. Krusvall, K. Lincha, T. Niyt, Ye.A. Solovyeva, Ye.N. Persik, I.N. Tkachikov, M. Xeydmets, M. Chernoushek, X.E. Shteynbax, Z.A. Yankovalar ishlarida bayon qilingan.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahri me'morchiligi, tarixiy yodgorliklarini qayta tiklash va ta'mirlash, shaharni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq qator ommabop publisistik maqolalar turli gazeta va jurnallarda chop etildi. Biroq, ularni tom ma'nodagi takomiliga yetgan ilmiy-tadqiqot ishlari deb bo'lmaydi. Chunki ular bu mavzudagi mufassal ishlangan va maxsus maqsad bilan tayyorlangan ilmiy ishlar emas.

Shuning uchun, ushbu tadqiqot ishi yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekistonda eski shaharlarning tarixiy hududidagi mahalla markazlarining jamoaviy muhitlaridagi me'moriy-

landshaft tashkillashtirishning muammolari yechimlarini topishga qaratilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzuga doir ilmiy va maxsus adabiyotlarni, Samarqand shahri tarixiy hududidagi mahalla markazlari me'moriy-landshaftni tashkil etish va amalga oshirish strategiyasiga doir hujjatlarni, kam qavatli turar-joylar va mahalla jamoatchiligiga doir qonun va farmoyishlarni o'rganish va mahallarga taalluqli me'moriy-landshaft loyihalarni grafoanalitik tahlil qilish va ilmiy umumlashtirish, ularni naturada kuzatish, fotofiksasiya qilish va ularni taqqoslash asosida kompleks tadqiqot o'tkazish va tadqiqot ishida qo'yilgan vazifalarni yechish va shu yo'l bilan maqsadga erishishdan iborat.

Tadqiqot ishida Samarqand viloyati va Samarqand shahri arxitektura-qurilish Bosh boshqarmasi, Samarqand viloyat madaniy me'ros obyektlarini himoya qilish Bosh boshqarmasi arxividagi ma'lumotlar va Samarqand shahrida mustaqillik davrida arxitektura va shaharsozlik sohasida amalga oshirilgan ishlar, chop etilgan maqolalar, Respublika me'morlar uyushmasining tanlovlariga yuborilgan ijodiy ishlarning fotosuratlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning siyosiy va iqtisodiy omillarini aniqlashda mahalla markazlarining regenerasiyasi haqidagi ilmiy bilimlar keng boyitilgan. Samarqand shahrida tarixan shakllangan mahallalardagi kam qavatli turar-joylar va ularning markazlarini me'moriy-landshaft loyihalashning tashkillashtirish vositalari, usullari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari mahalla markazlarining zamonaviy me'moriy-landshaft yechimlari bo'yicha nazariy takliflarni amaliyotda va Oliy Ta'lim o'quv tizimida qo'llashning ilmiy asoslari tuzib chiqilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Samarqandning eski shahar qismida tarixiy yodgorliklar va komplekslarni qayta tiklash ilmiy-amaliy konsepsiyalari, mahalla jamoaviy muhitini landschaft tashkillashtirish masalalarini yechimga va tartibga solish. Shaharsozlikda landschaft tizimi bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqish. Arxitektura faniga Samarqand shahrining tarixiy qismiga oid, avval keng ilmiy jamoatchilikka notanish bo'lgan ma'lumotlarni kiritish, shaharsozlik landschaft an'analari, mahalla markazlarining muhitini me'moriy-landshaftini tashkillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ish tuzilmasining tasnifi. Monografiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, illyustratsiya qismi va ilovalardan tashkil topgan, hajmi ___ betdan iborat.

I-BOB.

O'ZBEKISTON TARIXIY SHAHARSOZLIGIDAGI KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR, AN'ANAVIY MAHALLALARNING O'RNI VA LANDSHAFT MUHITI

1.1. Shaharsozlik muhitidagi mahalla markazlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi va tipologik shakllanishi

Ilmiy izlanishlar, yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar, ularning analizi va olingan bilimlar shuni ko'rsatdiki, mahalla markazlarining rivojlanish jarayoni O'rta Osiyo shaharsozlik tizimining eng boshlang'ich bosqichlariga to'g'ri keladi.

Mahalla markazlarining tarixiy tipologik rivojlanishini besh bosqichga ajratish mumkin:

1. Er.avv.VI-asr va eramizning IV-asri (quldorlik davri);
2. VII-XIII asrlar (Islom davri);
3. XIV-XV asrlar (Temuriylar davri);
4. XIV-XV asrlar (O'zbek xonliklari davri);
5. XX-asr (1917-yildan bugungi kungacha bo'lgan davr).

Mahalla markazlari rivojlanishining **birinchi bosqichida** shaharning rejali strukturadagi jamoat binolarini ajratish mumkin. Bu davrdagi asosiy maqsadlardan biri diniy dunyoqarashni shakllantirish va uning ta'sirini hamma sohalarida qo'llashdan iborat bo'lgan. Shu boisdan bu davrdagi mahobatli jamoat binolarining qurilishi uchun shaharning eng so'lim joylari tanlab olingan.

Bunga qadimiy O'rta Osiyodagi Tuproq-qala shahri arxeologik qazilmalari yorqin misol bo'la oladi. Shahar yuzasi tarxda 12 ga yuzaga ega teng to'g'ri burchakli to'rtburchakdan iborat. Shaharning shimoliy tomoni ichki devor bilan ajratilgan. Shimoliy-g'arbiy tomonda hukmdorning saroyi, ya'ni qasri joylashgan. Ushbu saroy uch qismdan hamda mehmonxona, yotoqxona va xo'jalik xonalaridan tashkil topgan. Qasr yonida katta bo'lmagan to'g'ri burchakli "olov ehromi" hovlisi shaharning siyosiy markazidan tashqari yana jamoat madaniy markazi funksiyasini bajargan. Shaharning qolgan 2/3 qismi turar-joylarning qurilishini tashkil etadi. Jamoat binosidan shaharning butun aholisi foydalangan [24].

Shaharsozlik tizimining keyingi rivojlanishi shahar dahalari hududida yaratiladi. Dahalar ko'p sonli bir xil turar-joylardan tashkil

topgan bo'lib, ba'zilar ochiq hovlilardan iborat, bu yerda mahalla markazlarining jamoaviy o'rnini joylashgan deb taxmin etiladi.

Hukmdorlar yashagan binolarda esa umumshahar jamoat markazlariga o'xshash tarzda jamoaviy-madaniy funksiyalar bajarilgan. S.P. Tolstoy ma'lumotlariga binoan Jonbos-qala turar-joy saroyida bir qancha xonalar topilgan, ulardan biri zardushtiylik otashgohi bo'lgan. Bu ibodatxonadan ancha katta xonalar esa majlislar zali hamda ta'madi xonalar hisoblangan, bularning hammasi esa "olovxona"ni tashkil etgan. Qadimiy "otash-kada" hamda hozirgacha saqlangan "olov xonalar"ni keltirib O'rta Osiyo, Amerika, Afrika va boshqa mamlakatlarning etnografik xalqlariga xos "erkaklar uyi"ni S.P. Tolstoy, ayniqsa, O'rta Osiyoda keng tarqaganligini aniqlaydi [10]. Shunga o'xshash qurilmalarning mavjudligini qadimiy manbalar ko'rsatadi. Masalan, Al-Beruniy ta'limotiga ko'ra "nauzard" oyida sehrgarlar bayramini butun xalq Ramush qishlog'idagi "olov uyi"da o'tkazgan. Bu tantanali bayramlardan biri hisoblanib, ketma-ket "olovxona"da yig'ilgan shahar aholisi bu uyda yog'dan tayyorlangan shirinliklarni tamaddi qilishgan [3].

Izlanishlar natijasiga ko'ra, "olov xona" atrofida boy landshaft muhiti tashkillashtirilgan. Bu muhit shahar markazidagi bosh ko'chadan tortib "olov xona" gacha cho'zilgan.

Afrosiyob va Pandjikent shaharlarining qazilmalari ham yuqorida ko'rsatilganlarni tasdiqlaydi. V.L. Voronina o'zining doktorlik dissertatsiyasida: haqiqatdan ham bu joylarda ataylab majlislar uchun qurilgan maskanlar bo'lmasa ham, umumiy xalq to'planadigan joylar mavjud bo'lgan deb ta'kidlaydi. "Olov xona"ning to'g'ri burchakli xonasi ba'zida daha markazlaridagi tantanalar o'tkaziladigan xonadan qolishmagan. Bu yerda ham birgalikda ovqatlanish, suhbat olib borish uchun hamda turli xil bayramlar va o'yinlarni o'tkazish uchun odamlar yig'ilgan (asosan erkaklar). Shundan anglash mumkinki, ba'zi og'zaki hamda yozma qadriyatlar shu yerda makon topib rivojlangan [32].

Olib borilgan izlanishlarga ko'ra, boshlang'ich bosqichda O'rta Osiyo shaharsozlik tizimi to'g'ri burchak shakliga ega bo'lgan, bunda shaharsozlikdagi turar-joylar, umumshahar jamoat markazlari yoki umumshahar me'moriy ansambli vazifasini bajargan. Antik shahar turar-joylarining monostrukturaligi, umumshahar arxitektura ansambli, jamoat markazlari bular bir vaqtning o'zida jamoat markazlari dahalari ham hisoblanadi. Shaharsozlik tizimining rivojlanishi bilan umumshahar arxitektura ansambllari va turar-joy jamoat markazlari dahasi hududi

yaratiladi. Ushbu mahalla jamoaviy markazi arxitekturasini endilikda shaharsozlik funksiyasini bajaruvchi boshlang'ich yadrosi, ya'ni turar-joylarning tizimidir.

Olib borilgan tahlil mahalla jamoat qurilmalarining kompozitsion hududini ko'rsatdi. Bu alohida qurilgan binolar turkumi o'zining mahobatlilik, masshtablilik hamda kompozitsiyaviy yaxlitligi bilan ajralib turadi.


Me'morlik mahoratning shakllanishi bilan o'sha paytlardayoq qurilish an'analari hamda estetik dunyoqarashlar jamoaviy qurilishda o'zini namoyon etgan. Tarixiy manbalarni hamda arxeologik tadqiqotlarni o'rganish mobaynida yuqoridagilarning haqiqatligi tasdiqlandi. Arxitektura ishlarida ustunli-to'sinli kompozitsiya konstruksiyasi ko'p qo'llanilgan. Bu yerda devoriy ustunlar yordamida devorning silliq yuzini ikki yarusga bo'lish ko'p tarqalgan edi. Erkin turgan ustunlar an'analarga tayangan holda ayvon tizimining konstruksiyasiga kiritilgan.

Geometrik shakllarni hamda jamoaviy binolarning proporsiyalarini qidiruvchi ushbu bosqichdagi jamoaviy me'morchilik asosini tashkil etadi. Modulli sistema qadimiy Nisa jamoaviy uylarida yorqin namoyon etilgan. Binoning kvadratli rejasida modulli o'lchov birligi 2,28 m ga teng, bu devorning qalinligidan kelib chiqqan. Bu yerda simmetriya qonunlari qo'llanilgan [32].

Al-Beruniy ma'lumotiga ko'ra, jamoaviy binolarning interyerini bezatish qullar ustidan hukmronlik davrida rassomchilik hamda haykaltaroshlikning arxitektura bilan ajralmas aloqada edi. "Aleksandr Makedonskiy yurishlarida greklar sug'dlar jamoaviy uylarida mahalliy epik yozmalarida keltirilgan san'at asarlarini ko'rganlar" [32]. Xolchayondagi katta bo'lmagan jamoaviy qurilmasida hamda Tuproq-qala jamoaviy kompleksida kompozitsiyali topilmalarning qoldiqlari saqlangan. Haykaltaroshlik mavzulari juda xilma-xil bo'lgan. Uni mashhur qirollar (Nisa, Xolchayan, Toprak-kala) hamda ilohiy-diniy rasmlari (Nisa, Marv, Termez) bilan aloqador bo'lgan [20]. Bunda san'at asarlari asosan diniy qarashlarni ko'rsatish uchun qo'llanilgan.

Jamoaviy markazlarning me'moriy-landshaft muhiti tarixiy shakllanish tizimining birinchi bosqichida ancha oddiy ko'rinishga ega bo'lgan. Mahalla markazi vazifasini bajargan "olov xona" alohida turuvchi soddaxonaviy kompozitsion yechimga ega binodan iborat bo'lgan. Uning atrofida tabiiy shakllangan landschaft mavjud bo'lgan. Shaharning

yagona markaziy bosh ko'chasi asosiy darvozadan "olov xona" gacha tortilgan. Bu ko'chani ikki tomonida soya hosil qiluvchi daraxtlar ekilgan.



1-rasm. Tarixiy shahar mahalla markazlarining evolyusion rivojlanish yo'llari
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

O'rta Osiyoda **ikkinchi bosqich** kichik mahalliy arxitektura ansamblarining rivojlanishi "Islom davri"ning boshlanishiga to'g'ri keladi. Arablarning hukmdorligi o'rta asrning boshida shaharning madaniy-iqtisodiy hamda shaharsozlik tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bizlarga odatiy bo'lgan to'g'ri burchakli shahar hunarmandlik anjomlarining savdosidan, mahalla shakli keltirilgan turar-joy komplekslaridan yanada kengayib bordi [22].

Mahalla – bu nafaqat hududiy birlashish, balki bu aholining shunday jamoasiki, ularning turmush tarzi kiritilgan qonunga muvofiq kechadi. Mahalla o'zining jamoaviy kengashlari olib boriladigan binosiga ega [14].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mahallaning jamoat qurilmalari "olov xona" davridagi jamoat qurilmalari bilan uzviy bog'langan. Oxirgisi o'rniga minorali masjid qurildi. Umuman olganda uning faqatgina shakli o'zgargan, funksional vazifasi shundayligicha saqlangan. Binolar tarzini bezatish singari o'simliklar va sug'orish tizimlari bilan landshaft muhiti boyib borgan.

Al-Beruniyning ilk manbalarga ko'ra aytishicha, "olov xona"ning qurilishi asosida ilohiy olov timsoli bo'lgan. O'rta Osiyoliklarga islom dinini majburan qabul qilishlari natijasida ular "olov xona"dan voz

kechmadilar, shuning uchun bu uyga faqatgina minorali masjid qo'shildi [3]. Bundan tashqari ushbu davrda shunday maskanlarning mavjudligini ko'pgina boshqa dalillar ham tasdiqlaydi. "Islomiyat davri"da mahalla qurilmalari safiga minorali masjidlardan tashqari asosiy tarkibiy qismlarga maktab, ayvon, hujra, xonaqoh ham kiritildi. Ular o'z navbatida, ikki tomonidan daraxtlar, gullar bilan boyitilgan hovuzga ega.

Bunday jamoaviy qurilmalarning paydo bo'lishida islom dini asosiy rolni o'ynadi. Islom dinigacha bo'lgan "olov xona"ning kompozision-hududiy tuzilishida ko'p kishilik yig'inlarni o'tkazishga imkon bermas edi. Mahalla jamoat markaziga ibodatga kelgan odamlarni shovqin-surondan, issiqdan, ko'chaning changidan ba'zan yomg'irdan saqlash uchun o'zida devorli yopiq, ichki hovliga ega xonalarni tashkil etdi. Shunday qilib, mahalla markazi bir necha o'lchamlarga ega maydonga ega bo'ldi. Bunday komplekslarni qurishdan kutilgan maqsadlardan biri xalqqa emosional ta'sirni kuchaytirishdan iborat deb taxmin qilish mumkin. Bu narsa esa o'z navbatida, bir necha binolarning birlashuvini talab etadi. Adabiyotlarda bunday qurilmalar "juft" deb ataladigan ansambllar nomini olgan.

Mazkur bosqichda mahalliy binolar turkumiga doir ansambl "qosh" uslubidan foydalanishni ham belgilaydi, bunda ikkita-uchta bino bir-biriga qaratilgan kirish joyi bilan kompozision mujassamlashtirilgan. Bunday joylashtirishda asosiy tarzlarning bezatilishi talab qilinadi [29]. Shunday qilib, kompozisiyaning birligi hamda ritmi kelib chiqadi, bu esa ansambl tuzilishining turar-joy qurilishida bosh vazifani bajarishini tasdiqlaydi.

Keyingi me'moriy-rejaviy o'zgarishlarda mahalla markazi o'zida binolarning turkumi va hududiy o'lchamini saqlab qolgan. "Ular o'zida islom dinigacha bo'lgan uzviylikni saqlab qoldi, - deb ta'kidlaydi amerikalik sharqshunos olim M. Xodjsen, - ular xristian hamda yaxudiylarning cherkovlaridan ajralib turgan [13].

Ko'rsatilgan davrdagi mahalla jamoat markaz ko'rinishining shakllanishi arxitekturaning yaxlitligi hamda takrorlanmasligi bilan ajralib turgan. Qurilish texnikasining rivojlanishi bilan mahalla bino markazining asta-sekin yangi ko'rinishi shakllangan. Bu ayniqsa, masjidning galereya bog'lari, minoralari hamda kirish peshtog'ida o'z aksini topgan. Arab olimi Ya. Zaki ustun, ravoq hamda minorani islom arxitekturasining "uch birligi" deb atagan [32].

Ushbu bosqichda dunyoga mashhur kashfiyotlar hamda nafis san'at asarlari rivojlanishining boshlang'ich nuqtasi bo'lib hisoblandi. Bu o'z navbatida mahalla jamoat markazlarini ham o'z ichiga olgan. Taniqli olim sharqshunos Adam Mes ushbu davrni "musulmon renessansi" deb ataydi. Bezaklarning xilma-xilligiga ganjkorlik, o'ymakorlik, pishiq g'ishtlardan ishlangan naqshlar, naqshinkorlik sirli g'ishtlarda hamda plitkalarda keng qo'llanilgan. Arxitektura bezaklarining bunday xilma-xilligi barcha sharq musulmonlari ruhiga mosdir.

Umuman olganda islom dinining arxitekturaga ta'sirini funksiyalarning o'zaro muvofiqlashuvi hamda majoziy yig'indisi sifatida aniqlash mumkin. Birinchilarga, ilohiy binolarning yaratilishi hamda tasvirlarning kamayishi to'g'ri keladi. Ikkinchilarga, geometrizm hamda arxitektura epigrafikasining ishlanishi to'g'ri keladi [27].

"Islom davri"dagi mahalla markazlari ularni avvalgi nusxalari bilan solishtirganda quyidagicha xulosa qilish mumkin: ular o'zlarining funksional yaxlitligini saqlagan holda me'moriy-rejaviy yechimning yangicha ko'rinishini qabul qildi. Bu ko'rinish arxitektura ansamblini shakllantirdi.

Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi islom madaniyati va iqtisodiyotiga katta zavol ko'rsatgan. Ko'pgina qiyinchiliklarni yengib o'tgandan so'ng qurilish va arxitektura yana rivojlanish bosqichiga asta-sekin o'ta boshlagan. Ushbu jarayonda mahalla markazlari arxitekturasining rivojlanishi ham kuzatilgan.

Ushbu bosqichda mahalla markazlarining landshaft muhiti ancha boyidi. "Olov xona" binosi shakli shu holatda qolib, uning yonida islom dini ta'siri bilan minora qo'shilgan va tabiiyki, uning atrofida landshaft muhiti ancha boyigan. Kun davomida besh mahal ibodat qiluvchilar atrofida issiq, quruq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda soya-salqin muhit yaratilgan. Bunday natijaga serbarg daraxtlar, tok havozalari, hovuz va ayvonlar yordamida erishilgan. Daraxtlardan odatda chinor, tut daraxtlari ekilgan. Bunday xulosaga biz, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkin.

Shaharsozlikning bu davrdagi yutuqlari o'zining aksini asosiy shahar magistralarining to'g'rilanishida, xilma-xil ansambllarda, ko'chalarda, mavzelarda topgan (Registon, Shohi Zinda va boshqalar). Mahalla markazlari arxitekturasining tadrijiy-tipologik rivojlanishi **uchinchi bosqichga**, ya'ni Temuriylar hukmronligi davriga to'g'ri keldi.

Tarixchi Sharafiddin ali Yazdiyning guvohligiga ko'ra, zabt etilgan shaharlardan Amir Temur ustalarni, milliy hunarmandlarni, san'at va madaniyat ahlini olib poytaxtga Samarqandga keltirgan, bu shahar keyinchalik Sharqning madaniyat markaziga aylangan. Mamlakatda ichki va tashqi savdoning rivojlanishi natijasida ko'pgina jamoat markazlari o'z tarkibiga savdo maskanlari va bozorlarni kiritgan hamda asosiy rejali shahar mikrostrukturasini yaratgan [22].

Mahalla markazining muhimligi va mahobatlilikini kuchaytirish maqsadida oldingi "juft" va "qosh" ansambl usullari keng qo'llanilgan. Biroq, Amir Temur faqatgina ansambl qurilishi bilan chegaralanmay, ansambl kompozitsiyasini asosiy ierarxik shaharsozlik elementlari bilan bog'lagan [29].

Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonning nomidan jamoat binolarining guruhini tashkil qilgan ulkan masshtabga ega Go'ri Amir, Kutbi-chaxar-Duxum mavzelar bilan hamda Ruhobod me'moriy ansambli bilan bog'lagan. Bugungi kunda ulardan faqatgina Go'ri Amir va Ruhobodning bir qismi saqlanib qolgan.

Shunga o'xshash ansambllarni yaratish an'anasi Ulug'bek davrida ham davom ettirilgan. Bu ma'lumotlarni Boburning yozma manbalari hamda arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Zahiriddin Bobur, Ulug'bekning Samarqand madrasasi ro'parasida joylashgan xonakoh minorasi jahonda yakkayu-yagona hisoblanadi, deb ma'lumot beradi [1]. Afsuski, bu xonakoh bizgacha saqlanmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlarda kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Temuriylar davrida kompozision-hududiy tuzilishga ega bo'lgan o'rta asr shahrida yangi uch bosqichli ierarxik struktura ishlab chiqilgan, bular: kichik mahalla markazi arxitekturasini, me'moriy ansambl va shahar masshtabidagi jamoat kompleksi edi [24].

Mahalla markazlarining landshaft muhiti temuriylar davriga kelib o'zining mukammal ko'rinishiga ega bo'ldi. Amir Temurning bog' yaratish san'ati tabiiyki, mahalla markazlarining landshaftiga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Mahalla markazlari landshaft muhiti turli xil manzarali va mevali daraxtlar, hovuz va boshqa kichik me'moriy shakllar bilan boyigan. "Sharq renessansi" deb nom olgan ushbu davrda jamoat markazlari landshafti, bog' yaratish san'ati kabi keyingi davrlar uchun asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu davrga kelib mahalla markazlari tarkibiga kiruvchi binolar soni ko'paygan. Shahar ahamiyatiga ega mahalla markazlari tarkibiga

katta bo'lmagan madrasalar, mahalliy markazlar tarkibiga maktablar va xonaqoh qo'shilgan. Bundan tashqari, issiq, quruq iqlim sharoiti uchun muhim bo'lgan hovuz, masjid uchun qo'shimcha bino – taxoratxonalar qo'shilgan va shu bilan birga sataroshxona kabi maishiy xarakterga ega binolar qurilgan. Bu esa o'z navbatida mahallalar ansamblini shakllantirgan.

Keyingi davrlarni o'rganishdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Temuriylar davrida mahalla ansambllari kompozision, badiiy dekorativ, hajmiy-fazoviy va landshaft yechimi o'zining mukammal ko'rinishiga kelgan.

Mahalla markazlari arxitekturasi rivojlanishining **to'rtinchi bosqichi** "o'zbek xonliklari davri"ga to'g'ri keladi.

O'zbek xonligi davri Shayboniylar hukmronligi bilan boshlangan. Ularning poytaxti Buxoro shahri Temuriylar davri poytaxtlari Samarqand va Hirotga teng kelmasa ham bu yerda savdo binolari keng qad rostlagan. Ushbu bosqichda O'rta Osiyo shaharlarining tarxi ancha o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Bular bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Shahar hududi qishloqlarning shaharlarga aylanishi natijasida kengayib borgan, bular o'z navbatida mahalla va mahalla markazlarining rivojlanishiga turtki bo'lgan [32].

Qurilish san'ati va shaharsozlik tizimining yangilanishi arxitekturani hamda mahalla jamoaviy muhitini chetlab o'tmadi. Ushbu davrni biz o'rganilayotgan obyektlarning yuqori evolyusion rivojlanish davri desak xato qilmaymiz. Oldinroq ishlab chiqilgan tamoyillar, uslublar va shakllardan farqli tarzda ushbu bosqichda yangicha usullarning kashf etilganligi kuzatilmoqda.

Bu davr bizga eng avvalo Toqi-Zargaron (zargarlar gumbazi) – murakkab mahobatli savdo inshootini, aynan mahalla va daha ko'chalari kesishgan chorrahani taqdim etgan. Abdullaxon timi esa kvadrat tarxli inshoot bo'lib, gumbazsimon "passaj"ni taqdim etdi. Buxorodagi Telpakfurushon esa avval qurilgan inshootlardan farqli ravishda o'zida gumbazlar kompleksini namoyon etgan. Bu esa mahallalar markazida bir necha ko'chalar kesishishi bilan kuzatildi [32].

Mazkur bosqichda interyer bezagi va eksteryerlarni bezash saqlanib qolingani, lekin ba'zi joylarda sifatining pasayishi kuzatilgan: sirli bezaklar oddiyroq rasmsiz sirli plitkalarga almashtirilgan.

Bundan tashqari, XVII-asr o'rtasidagi mahalla markazi o'zining arxitekturasi, texnikasi va geometrik shakllari, gumbazlari, minoralari

bilan "Temuriylar davri"dagi dekorga o'rin bergan [29]. Bu Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklaridagi feodal tuzumning rivojlanishi hamda iqtisodiyotning pasayib ketishi davri bilan bog'liq. O'zbek xonliklarining madaniyati Rossiya bilan birga olib borilgan savdo-madaniy aloqalar bilan XIX-asrning 20-30 yillarida kuzatilib borgan. Katta shaharlarda qurilish jadal rivojlanib borgan.

Ushbu davr mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasining ham sifatli, ham funksiyaviy jihatdan evolyusion rivojlanishining yuqori nuqtasi hisoblanadi. XIX-asrning ikkinchi yarmida mahallalarda ushbu obyektlarning qurilishi o'sib ketdi. Masalan, statistik tadqiqotlarga binoan 1850-1920 yillar oralig'ida o'sha paytda mavjud bo'lgan mahalla markazi arxitekturasining 60% qurilib bitkazilgan, 1990-1917 yillarning o'zida esa 35 %dan ortig'i bajarilgan.

O'rta Osiyoda Rossiyaning hukmronligi davrida dinga bo'lgan e'tibor yo'qqa chiqdi, ma'lumotlarga qaraganda XIX-asrda mahallalarda masjidlar umuman bo'lmagan. Suhbatlar hamda ma'lumotlar olish turlicha, bular: shaxsiy uylardagi mehmonxonalar, hujralar va boshqalarda kechgan. Mahallalarda ushbu jarayonlarni olib borish uchun binolarning qurilishi juda qiyin kechgan.

Mahalla markazi arxitekturasining har bir mahalla uchun xususiy tahlili shuni ko'rsatdiki, har bir yangi me'moriy ansamblarining qurilishida nafaqat uning turlari murakkablashdi, balki bunda avval yo'qotilgan kompozision-hajmiy fazosi hamda shaharsozlik jarayonlari barpo etildi.

Mahalla jamoaviy markazi arxitekturasining kompozitsiyasi to'rtta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: ayvonli masjid binosi, minoracha, hovuz hamda yashil maydonlar, bularga qo'shimcha hujra, maktab, xonaqo (darveshlar uchun turar-joy), taxoratchona, choyxona, hammom va boshqalarni kiritish mumkin. Mevali daraxtlar, gulzorlar, sharsharalar, ariqlar ushbu markazning bezagi hisoblangan.

Mahalla jamoaviy markazi arxitekturasini uchun shinam hudud tanlanadi, bunda suv havzalari hamda ko'klamlar va shunga o'xshash ko'plab elementlar talab etiladi.

Mahalla jamoaviy markazi arxitekturasining estetik shakllanishida asosiy rol ni san'at asarlari hamda binoning dekorativ elementlari, rangli gammasi hamda qurilish materiallari o'ynaydi. Bular turar-joy daxasida estetik-madaniy markaz hisoblangan, arabiy qo'lyozmalar, naqshinkorlik asarlari hamda milliy handasaviy ornamentlar bilan bezatildi. Boshida

geometrik ornament o'zining oddiy shakllarida "kanon" bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik ular rivojlandi va girix kompozisiyasi murakkablashdi. U vaqt o'tgan sari devorlarni to'ldirardi.

Ammo na geometrik ornament, na foydalanilmagan ranglar va materiallar o'sha vaqtda rivojlangan diniy qarashlarni ilgari sura olmadi. Shuning uchun bu yerda epigrafikaning o'rni kuchaydi. "Islom dini davri"da rivojlangan arab yozuvlari dekorativ elementlarning birinchisi bo'lib qoldi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu bosqichdagi mahalla jamoaviy markazining arxitekturalari quyidagilarni namoyon etadi: birinchidan, shaharsozlikdagi asosiy elementlardan biri shaharning shakllanishidagi "o'qli" ansambl rolini ro'yobga chiqardi; ikkinchidan, O'rta Osiyoning evolyusion madaniyatiga katta hissa qo'shgan ekzotik no'anaviy san'at asarlari: yozuviy va islimiy naqshlar, kundal naqshi va zoomorf bezaklarni yuzaga chiqardi.

Jamoaviy markazlar landshafti borasida ushbu bosqichda katta o'zgarishlar kuzatilmaydi. Mahalla markazi tarkibiga kiruvchi binolar soni o'zgarimasada, xonliklar davriga kelib aholi sonining ko'payishi mahallalar soni va markazlarining ortishiga olib keldi. Ya'ni, mahalla markazlari rivojlanishi vertikal (temuriylar davrida kuzatilgandek) emas balki, gorizontal yo'nalishda o'sdi.

Mahalla jamoaviy markazi arxitekturasining rivojlanishdagi **beshinch** **bosqich** bu O'zbekistonning SSSR tarkibiga kiritilish davriga to'g'ri keladi. Vaqt o'tgani sari hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda arxitektura ansamblari o'zining asosiy g'oyaviy-siyosiy vazifasini yo'qotdi. Shunga qaramasdan ular o'zida jamoaviy markaz vazifasini saqladi, lekin ularni endi madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi joy, deb atay boshlashdi [25].

Ansamblidagi xizmat ko'rsatish obyektlarining nomenklaturasi o'zgardi. Ayniqsa ansambl tarkibiga kirgan choyxonaning klub tarzida qo'llanilishi va ta'mirlanish tendensiyasi kuzatildi. Choyxona nafaqat dam olish va choyxo'rlik uchun, balki "agitasiya" va targ'ibot g'oyalari uchun ham xizmat ko'rsata boshladi. O'rta asr mahalla jamoaviy markazi arxitekturalari shaharsozlik tizimida kompozision-hududiy ko'rinishi sifatida o'zining eski holatini saqlanib qoldi. Ammo, bu kompozision-hududiy ansambl maydon yechimi va korxonalar nomenklaturasining yangilanishi bilan kuzatildi. Bu yerda turli shakl va yevropacha mo'jaz me'moriy konstruksiya elementlari – quyosh nuridan saqlovchi hamda

soya beruvchi shiypun, ayvon, peshayvon va kayvon nomlari ostidagi qurilmalar shakllandi. Uzun barglari bilan tuzilgan tok bu yerda salqin va soya beradigan mikroiqlimni yaratdi. Minoracha yonidagi hovuz tarafda supa ustida joylashgan shiypun, bu yerdagi mavjud ko'kalamzor va suv hamda naqshu-nigorlar ansamblga go'zal manzarani yaratib berishga xizmat qildi. Shu bilan birga ushbu bosqichda bularning ko'pchiligi tashviqot maqsadida ishlatilmasligi va eskirgan fizik holati sababli vayronaga aylandi.


Urushdan keyingi yillarda yangilanishlar ro'y berdi. Birinchi marta "oqsoqollar uchun choyxonalar" nomi bilan mahalla jamoaviy markazi arxitekturasini namunalik loyiha bo'yicha yaratildi [25]. Ular mahalliy klublar, ba'zan jamoaviy oshxonalar va ko'pincha mahalla masjidлари sifatida mahalla jamoaviy markazi arxitekturasida qo'llanildi. Ustalar ushbu kompleks ko'rinishini san'at asarlari bilan boyitishga harakat qilishadi. Ushbu binoning devorlari va shiftlari naqshinkorlik va xattotlik naqshlari bilan bezatiladi.

Davlat boshqaruvining o'zgarishi milliy qadriyatlarining toptalishiga olib keldi. Milliy qadriyatlar asosida yaratilgan mahalla siyosati to'xtatildi. Mahalla markazlariga esa boshqa funksional vazifalar qo'yildi. Masjidlar omborxona va pochta kabi tizimlar uchun xizmat qilgan. Bu esa uning atrofida tegishli landshaft muhiti shakllanishiga olib kelgan. Ya'ni, mahalla markazlari landshafti butunlay e'tibordan chetda qolgan.

Demak, bu bosqichda mahalla markazlari me'moriy-landshaft muhitining rivojlanish ko'rsatkichlari juda ham past bo'lgan.

Shu bilan birga, bizning davrimizga yaqin kunlarda mahalla jamoaviy markazi arxitekturasining rivojlanishi bilan bir qatorda uning yemirilishi ham kuzatilmoqda. Avval yaratilgan ansamblarning ko'pchiligi vayronalarga aylangan. Mahalla jamoaviy markazida qurilgan yangi dahalar ularga qo'yilgan talablarga javob bermaydi. Birinchidan, ular estetik didga javob bermaydi, bularning sabablarini qayta ko'rib, yaxshiroq o'rganib chiqishni talab etadi.

Shunday qilib shuni ta'kidlash joizki, kam qavatli turar-joylar mahalla jamoaviy markazi arxitekturasining shakllanishi hozirgi davrlarda ham olib borilmoqda, ammo ko'pincha sifatsiz o'zgarishlar bilan.



2-rasm. Mahalla markazlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

1.2. Samarqand eski shahrida kam qavatli turar-joylar tizimida jamoaviy muhit shakllanishining asosiy omillari

O'zbekistonning tarixiy shaharlari shaharsozlik tizimining shakllanishida ijtimoiy-maishiy omillar sezilarli rol o'ynaydi, ular o'z navbatida mahalla markazlarining arxitekturasida shakllantiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning tarkibiy-genetik tipologiyasida, arxitekturaviy-badiiy qiyofasida o'z aksini topadi.

Shaharning kichik bo'linmalar – mahallalarga bo'linishi eng hayotiy hodisa bo'ldi, unda o'rta asrlar maishiy turmush tartiblari va me'moriy-rejaviy tuzilishga xos bo'lgan ko'pgina jihatlar saqlanib qoldi.

Mahalla aholisi aksariyat hollarda o'zaro kasbiy va ishlab chiqarish munosabatlari orqali farqlanadi. Bu narsa mahallaning barcha oilalarini shaxsiy aloqalar, umumiy manfaatlar va majburiyatlar, umumiy ishlardagi ishtiroki bilan bog'laydi.

Demak, u yoki bu kasbdagi aholini birlashishi mahallaning birlamchi o'zagi hisoblanadi. Bu narsa mahallalarning nomlarida ham aks etgan bo'lib, qator hollarda mahallaning ishlab chiqarish-hunarmanchilik yo'nalishini belgilab beradi (temirchilar, qassoblar va h.k.). Ba'zi hollarda mahallalar oilaviy tili bilan birlashib, bu narsa ularning nomida

ham aks etadi (misol uchun, Toshkentdagi Tojik yoki Qashqar, Samarqanddagi Eroni va boshqalar).

Mahallaning ichki rejali tuzilishi unda yashayotgan aholining mashg'ulot turiga bog'liq. Ko'pincha ustaxonalar aholining turar-joylarida, mahallaning ko'chasiga qarab joylashgan hamda bir vaqtning o'zida do'kon vazifasini ham bajargan [32]. Ba'zi hollarda esa do'kon va ustaxonalar shahar tashqarisida joylashgan. Bu narsa shahar hududining qandaydir xususiyatlari bilan bog'liq emas, balki bo'sh yerlarning mavjudligi bilan tushuntiriladi, ularning atrofida keyinchalik kasbi, mashg'uloti va hunari bir xil bo'lgan yangi mahallalar paydo bo'lgan. Mahalla va hunarmandchilik birlashmalari – shahar chegaralarini kengaytiradigan yangi mahallalarning rivojlanishidagi asosiy yo'llardan biri bo'lib qolgan [27].

Mahallalardagi hunarmandchilik anjomlarini tovarlar miqdorining ko'payganligi va aholi turmush darajasining oshishi savdo va maishiy hayotni tashkil qilishda yangi shakllarni talab qilar edi [32]. Bu holat shakliy va hajmiy yechimi bo'yicha turlicha bo'lgan savdo binolari, savdo rastalarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Ularning ko'pchiligi shahar va mahalla markazlariga yaqin joylashgan yoki ular bilan bevosita birgalikda barpo etilgan.

Shu bilan birga, shaharliklarning o'zaro moslashishi va turli kooperasiyalarning rivojlanish jarayoni bilan hamohang tarzda nafaqat shaharlarning o'sishi, balki alohida qismlarga bo'linishi yuz bergan. Ko'chaga qaragan dahalar ichkariga qaratiladi [22]. Shaharliklarning kasblari bo'yicha konsolidasiyasi yuz beradi, ularning har biri o'z qurollariga ega bo'lish va turli xavflardan o'zlari himoyalaniishga intilishadi. Natijada kechalari berkiladigan darvozalari, kichik dehqon bozori, o'z hovuzi, masjidi, maktab, o'z markaziga ega bo'lgan yopiq dahalar yuzaga keladi [32].

Shahar alohida mahallalar majmuasidan iborat bo'lgani kabi, mahallalar ham alohida turar-joy egalarining majmualaridan iborat. Bunda shahar umumshahar jamoatchilik va madaniy markaz atrofida birlashgan turar-joy dahalarining monostrukturasi bo'lsa, mahallalar mahalla markazi-guzar atrofiga to'plangan xususiy turar-joylarning majmuasidan iborat.

Biz yuqorida keltirib o'tayotgan materiallar mahalla markazlarini shakllantiradigan va o'rta asrlar shaharlarining shaharsozlik tizimi to'g'risida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Bularni

yuzaga keltirgan shart-sharoitlar nimalardan iborat bo'lgan va ular mahalla markazlarining tipologiyasi va shaharsozlik tizimining shakllanishiga qanday ta'sir o'tkazgan?

Bu savolga javob berish uchun o'rganilayotgan obyektlarning evolyusion rivojlanishiga bag'ishlangan bundan oldingi paragrafda keltirilgan ma'lumotlarni sinchiklab kuzatish va atroflicha to'xtalishning o'zi kifoya. Misol uchun, "Islom davri" bosqichini ko'rib chiqaylik. Islomgacha davrga taalluqli bo'lgan daha qurilishi me'moriy-rejaviy yechimi bo'yicha alohida binolar ko'rinishida bo'lgan, hajmiy-muhiti jihatidan esa yassi tomli bo'lgan. Daha jamoatchilik markazining tipologiyasi islomning tarqalishi bilan birga borgan. Ko'p sonli ibodat qiluvchilarni sig'dirish, ularni shahar shovqinidan, quyosh va yomg'irdan himoyalash ibodatxonalarni ichki hovlisi mavjud ixcham binolarga aylantirgan, ularning ikki yoki to'rtta ayvoni, katta va keng ibodat zallari bo'lib, ular o'z tarkibiga yordamchi xo'jalik binolari, hovuz, minora, keyinchalik madrasa va boshqa elementlarni olgan me'moriy majmua – yagona markaz atrofiga to'plangan [17].


Ijtimoiy-maishiy va ideologik omillar nafaqat mahalla markazlarining me'moriy-rejaviy yechimida, balki qurilish dasturlarini ishlab chiqish, shakl va ramzlarini yaratishda ham aks etadi. Bino interyerlarini bezaydigan ustalar diniy yo'nalishlarni aks ettiradigan shakllarni tasvirlashga harakat qilishadi yoki bu narsa shohlarni ulug'lash, hayot va hosildorlik manbai bo'lgan suvni ulug'lash bilan bog'liq bo'ladi [27].

Islomgacha bo'lgan davrning boshqa ko'rinishlari ham suv ramzi bilan bog'liq. Ularning orasida shoxli hayvonlar, ayniqsa hosildorlik timsoli–buqa alohida o'rin tutadi. Muayyan obrazlar xiralashadi va naqsh orasiga singib ketadi. O'simlik naqshlari, keyinchalik o'sha davrlarda kuchaygan diniy g'oyalarni ulug'lash maqsadida geometrik naqshlar kuchayib, epigrafik naqsh kiritiladi. Ularning birlashishi binolarga o'ziga xos go'zallik nafislik bag'ishlaydi.

Umumiy an'analar jamiyat o'zining barcha a'zolariga qo'yadigan talablarni ko'p jihatdan aniqlab beradi. Jamiyatning bir a'zosi hisoblangan inson o'zini yolg'iz his qilmaydi, doimo nafaqat moddiy va ma'naviy ko'mak, balki jamiyatning bevosita yordamidan ham umidvordir. Undan tashqari, shu jamoaviy muhitning barcha a'zolari umumiy bino va unda joylashgan umumiy buyumlar–jamoyatchilik tadbirlarida qozon, kosa, piyola, dasturxon, qoshiq va boshqalardan

bemalol foydalanishlari mumkin edi. Undan tashqari, dafn marosimida ishlatiladigan buyumlar, sovuq bo'lgan paytlarda tobutni ko'taradigan kishilarga beriladigan bir necha juft etiklar ham tegishli bo'lgan. O'sha jamoatchilik binosida joylashgan masjid, ba'zida madrasa, hovuz, hovuz atrofida shakllangan landshaft elementlari ham ajralmas qism bo'lib, ularning barchasi butun ansambl-jamoatchilik markazini tashkil qilgan.

Shu bilan birga, jamoaning har bir a'zosiga nisbatan o'ziga yarasha talablar ham bo'lgan. Mahalla hududidan foydalanishdan tashqari uning aholisi o'z turar-joyi oldidagi ko'chani toza saqlash, suv ta'minoti va obodonlashtirilishini ta'minlashi lozim bo'lgan. Mahalla ansambllarini qurish yoki ta'mirlash, hovuzlarni tozalash ham muhim jamoaviy ishlardan bo'lgan, ularning obod ko'rinishi va tozaligi, ularga aholi tomonidan sarflanadigan kuch va mablag' miqdoriga to'liq bog'liq edi [32]. Ba'zida bu ishlar mahallada yashayotgan badavlat kishilardan birining yordami bilan, ba'zida esa umumiy g'azna hisobiga qilinardi. Bu yerda buyurtmachining ijtimoiy mavqei moddiy imkoniyatlari, jamiyatda egallagan o'rni, mansabi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mablag' miqdori oshishi bilan xonalar soni ko'paygan va ularning badiiy bezatilishi boyib borgan. Ayniqsa savdogarlar va yirik amaldorlar o'z obro'sini saqlash maqsadida qurilishga o'z mablag'larini kiritishgan, bu katta savob ish hisoblangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunday markazlarning arxitekturaviy-funksional yechimiga xalq an'analari, turmush sharoitlari chuqur iz qoldirgan va hozir ham shunday.



3-rasm. Mahalla markazlarining shakllanish omillari
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

Mahalla markazlarining qurilish va rivojlanish jarayonining o'zi ham qiziqarlidir. Agar qurilish va ta'mirlash mahalla aholisi, butun jamoatchilik talablarini inobatga olgan holda amalga oshirilsa, bino interyerlariga badiiy bezak berish buyurtmachilar xarakteriga bog'liq bo'lgan. Obyekt umumxalq madaniyati "mahsuloti"ga aylangan. An'analar hattoki, o'rganilayotgan obyektlarning nomiga ham ta'sir qilgan. Quyida keltirilayotgan mahalla markazlarining nomlari shu fikrimizni to'liq tasdiqlaydi.

Samarqand shahridagi *Toshkandi Mullo Qosim mahalla markazi* keksalarning aytishlaricha, 1910-1915 yillarda qurilgan. Butun majmua mahalla aholisining mablag'lari hisobiga qurilgan, mahallaning nomi esa Toshkentdan ko'chib kelgan Mullo Qosim ismli ustaning sharafiga qo'yilgan. Xuddi shunga o'xshash ikkinchi misol, XIX-asr boshlarida qurilgan Samarqanddagi Abulxair mahalla markazi. Mahalla ahlining aytishicha, majmua binosini qurgan odamning ismi Abulxair bo'lgan. Buyurtmachilar esa shu mahalla aholisi bo'lib, qurilish uchun ketgan mablag'ni ham o'zlari yig'ib berishgan.



4-rasm. Samarqand shahridagi Toshkandi Mullo Qosim masjid muzeyi
(<https://2gis.uz/samarkand/firm/70000001079681714/66.979839%2C39.649077?m=66.980322%2C39.64923%2F18.18>)

O'z mablag'larini mahalla ehtiyojlariga sarflagan badavlat kishilar chetda qolib ketmagan. Hurmat e'tibordan tashqari, u mahalla aholisi tomonidan mahalla ehtiyojlari uchun xayr qilingan narsalardan nazoratsiz foydalanish huquqini olgan. Odatda bunday xarajatlarda xayr qiluvchining hattoki boshqa mahallalarda yashaydigan qarindoshlari ham ishtirok etishgan. Agar tashabbuskor "obro'li", ya'ni badavlat va hurmatli kishi bo'lsa, u holda uning tanishlari va qo'l ostidagilari o'sha boy amalga

oshirgan ishga o'z hissalarini qo'shishni o'zlari uchun faxr deb bilishgan. Bunday qurilishlarga misol sifatida, Samarqand shahri Yutuq ko'chasidagi 1732-yilda qurilgan Ashur Marhamat masjidini keltirish mumkin. Buyurtmachi Ashur Marhamat boy. Qurilish uchun mablag'ni Ashur Marhamat boy va Kul Aylamboy bergan. Mahalla markazining nomi ham ikkalasidan birining nomiga qo'yilgan.

Lekin ba'zi paytlarda bunday ishlar umumiy g'azna hisobiga amalga oshirilgan. G'azna qurilish materiallari va mardikorlar mehnati uchun pul ajratgan xolos. Ular uchun kerakli ovqatlanish: nonushta, tushlik va kechki ovqatga ketadigan xarajatlarni mahalla aholisi ko'targan. Samarqand shahri Buxoro ko'chasidagi Dari Zanjir masjidini shunga misol qilish mumkin. Majmua XVIII-asrda qurilgan. Ustolardan usto Shokir (tosh teruvchi)ning ismi ma'lum. U shuningdek, hattotlik va o'yib yozish san'atidan ham xabardor bo'lgan. Bu yerda qurilishni g'azna moliyalashtirgani bilan qurilishga Pirmat Boy va mahalla aholisi hissa qo'shgan, unda har kim o'z qurbiga yarasha qatnashgan. Ba'zilar esa pullari bo'lmaganidan ovqat tayyorlab berishgan yoki moy, un, guruch, o'tin ko'rinishida yordam berishgan.

Ba'zi holatlarda masjidlarda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xalq orasidagi taniqli kishilar yoki turli voqealar nomini berishgan. Misol uchun, Samarqand shahri Vobkent ko'chasidagi *Faqih Abu Lays mahalla ansambli*. Masjid XIX-asr oxirida shu yerdagi eski masjid o'rnida qurilgan. Buyurtmachi sifatida eski mahalla aholisi chiqqan. Masjid hududiga Alisher Navoiyning ustozi Xoja Jaloliddin Fayzulla Abdullaysiy dafn etilgan. Masjid nomi ham uning nomiga qo'yilgan.





5-rasm. Samarqand shahri Vobkent ko'chasidagi Faqih Abu Lays masjidi
(<https://2gis.uz/samarkand/search/Samarqand%20shahri%20Vobkent%20ko%E2%80%980%98chasidagi%20Faqi%20Abdullays%20mahalla/firm/70000001079609547/66.984066%2C39.653734/tab/info?m=66.98383%2C39.653293%2F16.94>)

Mahalla markaziga nom berishning yana bir holati Samarqand shahri So'zangaron ko'chasidagi *Madaniyat mahallasining Mug'ombir ansambli*. Bu masjidning qurilishi to'g'risida quyidagicha hikoya qilishadi. Mug'ombir masjidi qurilgan mahalla hududida ikkita boy – Orifjonboy va To'g'riboy yashagan. Orifjonboy yuqorida nomi keltirilgan Toshkandi Orifjonboy masjidini qurdirgan. Oradan biroz vaqt o'tib, bu ikki boy arazlashib qolishgan va To'g'riboy ibodat qilish uchun Orifjonboyning masjidiga bormaslik maqsadida o'z masjidini qurdirishga qaror qilgan. Yangi masjidni aholi Toshkandi Orifjonboy masjidiga qaraganda chiroyliroq deb topishgan va To'g'riboyning Mug'ombir deb atay boshlashgan (mug'ombirni ayyor deb tarjima qilish mumkin). Bu nom butun boshli kichik mahalla markazi nomida saqlanib qolgan.

Shunday qilib, mahalla jamoaviy markazlarning shakllanishida asosiy shart-sharoitlar g'oyaviy, ijtimoiy-maishiy va iqtisodiy omillardan iborat bo'lgan. Ular mahalla markazlari, ularning qiyofalari, mahallalarning yangi ko'rinishining yaratilishiga yordam berib, shahar shakllantiruvchi rolni o'ynagan va shaharning hudud jihatdan o'sishiga ta'sir qilib, uning kompozision muhit tarkibining yangilanishiga katta ta'sir o'tkazgan.

1.3. Kam qavatli turar-joy muhitining me'moriy-rejaviy, hajmiy-fazoviy yechimi va jamoaviy markazlarni vizual qabul qilish

Samarqand shahri tarixiy qismining har bir ko'chasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, an'anaviy turar-joylar orasida tor ko'chalarning dominant, shu muhitdagi kompozision yechimi bo'lib masjid va choyxonalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Qurilgan turar-joylar kompleks ko'rinishda bo'lsa, jamoat binolari (masjid, choyxona, mahalla markazlari) shu ko'chalarning rejaviy tuzilishiga kiritilgan. Agar boshqa tomondan ko'rib chiqadigan bo'lsak, hovlilari uylar o'z zamonining chiziqli uylari bo'lib, ko'chalarning rejaviy tuzilishi va muhitiga mutanosiblik bilan chambarchas bog'liqdir. Uchinchi tomondan shu tarixiy zonada yaratilgan kompozision muhitda an'anaviy uylar, yog'och ustunli ayvonlar, tiniq suvga to'ldirilgan hovuzlar, mayda bargli daraxtlardan ekilgan ko'kalamzorlar, masjid hamda choyxonalar nafaqat ko'chalarning rejaviy tuzilishi balki, aholining bir-biri bilan muloqoti, yoz kunlarida salqin va soyali joylarda dam olib hordiq chiqarishiga ham xizmat qiladi. Undan nafaqat yashovchi aholi, balki o'tib ketayotgan yo'lovchilar ham bahramand bo'lishlari mumkin bo'lgan.

Mahalla markazlari turar-joylar orasida mutanosib bir tekislikda joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa 450-500 metrni tashkil qilgan. O'tib ketayotgan yo'lovchilar labirint kabi tor ko'chalarda kompozision muhitdan zavqlanib, uzoqdan ko'rinarayotgan masjid minorasini mo'ljalg'a olib katta ko'chaga chiqib olgan.

Shaharning tarixiy qismida joylashgan har bir mahalla markazi turar-joy va ko'chalarning rejaviy tuzilishini tashkil qilsada, u Samarqand shahri tarixiy qismi strukturasining ham ajralmas qismidir. Ular asrlar davomida bizgacha yetib kelgan. Shaharning kompozision muhiti, shu shaharning hududiy parametrlariga qaramay insoniyat ko'chalarning qulay rejaviy tuzilishiga katta e'tibor va qat'iyatlik bilan qaragan va bu narsa bizgacha qisman yetib kelgan.

Samarqand shahar tarixiy kompozision muhit strukturasini o'rganib chiqqanda, umumshahar monumental ansambllari hamda kichik mahalla markazlarini analiz qilib taqqoslab qarasa, mahalla jamoaviy markazlari umumshahar ansambllar bilan kompozision rejaviy tuzilishi va naqshinkorligi bilan kontrast bo'lib bir-biridan ko'zga yaqqol tashlanib farq qiladi. Bundan maqsad asosiy inshootlarni ajratib ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Bunga katta imoratlardan Bibixonim madrasasi, Registon maydoni, Go'ri Amir va Shohi Zinda majmualari misol bo'la oladi. Ular Samarqandning eski tarixiy shahar qismlarida joylashgan bo'lib, o'zining kompozision masshtabi va salobati bilan mahalla ansambllari va shu mahallada joylashgan turar-joy binolaridan yaqqol ajralib turadi. Ular nafaqat mahallada joylashgan binolardan, balki bir-biridan ham farq qilgan. Masalan, shahar markazida joylashgan inshootlar kattaroq, shu shahar masshtabiga moslashtirilgan bo'lib, ulardagi bezaklar ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Hamda boshqa mahalla markazlarda joylashgan inshootlar ham, shu mahallaning bir qavatli bir xilda takrorlangan hovlilardan, kompozision mutanosiblik, masshtabni buzmasdan nafaqat hajmi bilan, balki unga berilgan tus-ranglari va shu yerda joylashgan muhiti bilan yaqqol ajralib turadi [32].

Me'moriy obidalarning ranglari sovuqroq ranglarda bo'lib, uni o'rab turgan atrof muhit qurilmalarning ranglari esa iliq tondan iborat, devorlari loy somon shuvoqdan yoki pishiq g'ishtdan iborat bo'lgan.

Shahar qurilishida mahalla jamoaviy markazlari bir-biri bilan bog'liq kompozision xarakterga ega bo'lib, ular zich joylashgan ko'chalarning rejaviy tuzilishiga kontrast va nyuans darajada moslashtirilgan. Agar umumshahar rejalashtirish tizimida arxitekturaviy ansambllar yagona plastik sterjenda joylashgan bo'lsa, unda biz mahalla markazlarini bunday tizimda uchratmaymiz. Hamda arxitekturaviy ansambllarning dahalarda joylashgan rejaviy tuzilishi shu kompozision muhitga va ko'chalarning rejaviy tuzilishiga mutanosibdir. Mahalla markazlarining bir-biriga o'lchamlari, salobati, rangli gammalari, kompozision muhiti mosligi bilan yaqindir. Bu holat dahalar va mahalla markazlarini bir-biriga bog'lab, yagona yechimga olib keladi va ko'chalarning rejaviy tuzilishi bilan mahalla markazlarini bir-biri bilan moslashtiradi. Lekin umumshahar kompozisiyasining bir xil turdagi zich joylashgan hovlilar va mahalla markazlari ma'lum darajada aks etganki, ular kompozision muhitning arxitekturaviy rejalashtirilganligi, ranglarining kontrast qabul qilinganligi bilan ajratilgan.

Olimlarning ko'p yilgi tadqiqotlariga qaraganda, har bir shahar o'ziga xos salobatga ega bo'lib, ular shu shaharning xarakteriga, kompozision muhitiga, shaharda zich joylashgan aholi yashash turar-joylariga bog'liqdir va bunda mahalla jamoaviy markazlari shaharning rejaviy strukturasida asosiy rol o'ynaydi. Ular mahalla strukturasida tarixiy ko'chani aks etib, Samarqand shahrini tarixiy shahar ekanligini


yana bir bor isbotlaydi. Bunday individual inshootlarning kompozitsiyalari, shaharning vertikal salobati hisoblanib, u nafaqat mahalla, balki shaharning ham dominant bo'lib xizmat qiladi. Shuni aytib o'tish joizki, tarixiy qismlarda joylashgan aholi dahalari, hamda shaharni tarixiy qismida joylashgan turar-joylar, alohida elementlar, vertikal kompozitsiyalar har bir mahallani tekis fonida kompozitsion muhitiga ko'rk qo'shib turadi [32].

Shaharning tarixiy qismini rekonstruksiya qilish, uning ichki turar-joylar joylashgan qismini va mahalla markazlarining regeneratsiyasi bilan bog'liqdir.

Tadqiqotlarga qaraganda, tarixiy shahar turar-joylar qismi umumiy kompozitsion muhitining ponaramasini uch pog'onaga bo'lish mumkin:

- umumshahar miqyosidagi arxitekturaviy ansambllar monumentlari;
- kichik mahalla markazlari;
- bir tipdagi zich joylashgan turar-joylar.

Undagi har bir pog'onalarni o'rganib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin, mahalla jamoaviy markazlarining roli katta shahar kompozitsiyasi va umumshahar ichida joylashgan monumental ansambllar ichida ko'rinmay ketadi.



6-rasm. Me'moriy muhitlarning hajmiy-fazoviy yechimlari va visual ko'rinishlari
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

Umumshahar monumental ansambllarning umumiy tuzilishi jamoat mahalla markazlarini tashkil qiladi. Bunday asosiy yechimni O'zbekistonning barcha shaharlarida ko'rishimiz mumkin. Bunda biz muhitdagi ko'chalarning rejaviy tuzilishini, vertikal dominantli

inshootlar, bir qavatli zich joylashgan turar-joy imoratlarning tomlari tekis va ko'kalamzorlashtirilgan muhit, hovuz atrofidagi ansambl, bog' xiyobon me'morchiligida "chorbog'" tipidagi ansambllarni uchratamiz.

"Chorbog'"larning yuzaga kelishida O'rta Osiyoning o'ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo'lgan. Badavlat odamlar dastlab shaharlar atrofidagi sersuv joylarda bog'lar bunyod etib jazirama yoz kunlarida soya salqinda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabboda joylarda dam olishgan. Bunday bog'larda, odatda, sersoya manzarali daraxtlardan tashqari turli-tuman mevali daraxtlar, xo'jalik uchun toklar va boshqa ekinlar ekilgan. Ekinlar uchun tekislanib chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida esa mo'jaz gulzorlar tashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan aylantirilib, darvozalar ishlangan (Nozilov D.A., 1997, 29-b). Ular yozgi qo'rg'oncha bog'lar ko'rinishini olgan. Bunday bog'lar sahni o'q ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'lingan. Shunday simmetrik va muntazam handasaviy tartibda rejalangan bog'lar xalq orasida, pirovardida "**chorbog'**" nomini olgan. Badavlat oilalar o'z chorbog'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'larga taklif qilishgan. Bunday mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lar suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda yoki tog' yon bag'irlaridagi qiyaliklarda bunyod etilgan (Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.J., 2004, 28-b.).

Mahalla markazlarini hovlilar bilan tashkil qilganda, ularning joylashgan o'rni, rivojlanish tarixi va binolarni qurishdan ko'zlangan maqsad bilan chambarchas bog'liqdir. Hamda ular umumshahar monumental ansambllar bilan birgalikda umumiy yaxlitlikni tashkil qiladi. Ularga misol qilib, Xiva va Buxoro shaharlari panoramasini keltirish mumkin. Vertikal elementlariga (minoralar, bino va inshootlarni baland peshtoqlari, gumbazlar)ni kiritish mumkin. Baland qurilgan bino va inshootlar umumshahar monumental ansambllar, mahalla jamoaviy markazlari va turar-joylardan balandroq turib umumiy shahar kompozitsiyasiga yanada ko'proq ko'rk qo'shadi. Bunday shaharlar kompozitsiyasi va ritmik ko'rinishi bilan bir-biriga o'xshaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, tarixiy shaharlarda shahar ko'rinishi va loyihalash bir-biriga o'xshagan. Zich joylashgan turar-joylar ichidagi mahalla markazlari, katta umumiy shahar monumental ansambllariga o'tish uchun xizmat qilgan [32].

Shundan ma'lum bo'ldiki, har bir ansamblda mahalla markazlari va tarixiy shahar strukturasi muhitida mahalla markazlarini qurish juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, chunki mahalla markazlari oldida monumental ansambllar yorqin namoyon bo'lgan.

Bunday tahlillardan keyin xulosa qilish mumkinki, mahalla markazlari tarixiy shahar muhitining asosiy o'rinni egallagan.

I-bob xulosasi

1. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalla markazlarining tarixiy tipologik rivojlanishini besh bosqichga ajratish mumkin:

1. Er.avv. VI-asr va eramizning IV-asri (quldorlik davri);
2. VII-XIII asrlar (Islom davri);
3. XIV-XV asrlar (Temuriylar davri);
4. XIV-XV asrlar (O'zbek xonliklari davri);
5. XX-asr (1917-yildan bugungi kungacha bo'lgan davr).

2. Jamoaviy markazlarning me'moriy-landshaft muhiti tarixiy shakllanish tizimining *birinchi bosqichida* ancha oddiy ko'rinishga ega bo'lgan. Mahalla markazi vazifasini bajargan "olov xona" alohida turuvchi sodda tarixiy kompozision yechimga ega binodan iborat bo'lgan. Uning atrofida tabiiy shakllangan landshaft mavjud bo'lgan. Shaharning yagona markaziy bosh ko'chasi asosiy darvozadan "olov xona" gacha tortilgan. Bu ko'chani ikki tomonida soya hosil qiluvchi daraxtlar ekilgan.

3. *Ikkinchi bosqichda* mahalla markazlarining landshaft muhiti ancha boyidi. "Olov xona" binosi shakli shu holatda qolib, uning yonida islom dini ta'siri bilan minora qo'shilgan va tabiiyki, uning atrofida landshaft muhiti ancha boyigan. Kun davomida besh mahal ibodat qiluvchilar atrofida issiq, quruq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda soya-salqin muhit yaratilgan. Bunday natijaga serbarg daraxtlar, tok havoalari, hovuz va ayvonlar yordamida erishilgan. Daraxtlardan odatda chinor, tut daraxtlari ekilgan. Bunday xulosaga biz Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkin.

4. *Uchinchi bosqichga* kelib mahalla markazlari tarkibiga kiruvchi binolar soni ko'paygan. Shahar ahamiyatiga ega mahalla markazlari tarkibiga katta bo'lmagan madrasalar, mahalliy markazlar tarkibiga maktablar va xonaqoh qo'shilgan. Bundan tashqari, issiq, quruq iqlim sharoiti uchun muhim bo'lgan hovuz, masjid uchun qo'shimcha

bino – taxoratxonalar qo‘shilgan va shu bilan birga sartaroshxona kabi maishiy xarakterga ega binolar qurilgan. Bu esa o‘z navbatida mahallalar ansamblini shakllantirgan. Temuriylar davrida mahalla ansamblari kompozision, badiiy dekorativ, hajmiy-fazoviy va landshaft yechimi o‘zining mukammal ko‘rinishiga kelgan.

5. *To‘rtinchi bosqichda* jamoaviy markazlar landshafti borasida katta o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Mahalla markazi tarkibiga kiruvchi binolar soni o‘zgarimasada, xonliklar davriga kelib aholi sonining ko‘payishi mahallar soni va markazlarining ortishiga olib keldi. Ya’ni, mahalla markazlari rivojlanishi vertikal (temuriylar davrida kuzatilgandek) emas balki, gorizontal yo‘nalishda o‘sdi.

6. *Beshinchi bosqichda* – davlat boshqaruvining o‘zgarishi milliy qadriyatlarning toptalishiga olib keldi. Milliy qadriyatlar asosida yaratilgan mahalla siyosati to‘xtatildi. Mahalla markazlariga esa boshqa funksional vazifalar qo‘yildi. Maschidlar omborxona va pochta kabi tizimlar uchun xizmat qilgan. Bu esa uning atrofida tegishli landshaft muhiti shakllanishiga olib kelgan. Ya’ni, mahalla markazlari landshafti butunlay e’tibordan chetda qolgan. Bu bosqichda mahalla markazlari me’moriy-landshaft muhitining rivojlanish ko‘rsatkichlari juda ham past bo‘lgan.

7. Har bir davrda mahalla markazlarining shakllanishi, ularning hajmiy-fazoviy yechimi, badiiy-dekorativ kompozitsiyasi, me’moriy-landshaft muhiti o‘sha davrning iqtisodiy, maishiy-madaniy omillaridan kelib chiqqan.

8. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston tarixiy shaharlarining markazlari, ayniqsa mahalla markazlari an‘analarini qayta tiklash va shakllantirish, mahalla jamoaviy institutini shakllantirish bo‘yicha hamda kam qavatli an‘anaviy mahalla uylarini modernizatsiyalash ishlari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar bajarilmoqda. Biroq, mahalla markazlari, guzarlar va kam qavatli hovlilari uylar landshafti va umuman mahalla jamoaviy shaharsozlik muhitini me’moriy-landshaft tashkillashtirish masalalari shu choqqacha ilmiy jamoatchilik va mutasaddi tashkilotlar e’tiboridan chetda qolmoqda.

II–BOB.

KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR (MAHALLA) TIZIMINING LANDSHAFTINI TASHKIL ETISH USULLARI

2.1. Kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining landshaft yechimlari

Me'moriy-landshaft muhiti va mahalla markazlarini ko'kalamzorlashtirish tabiiy iqlim sharoitlari hamda mahalliy floraning dekorativ o'simliklari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilishi kerak. Me'morchilikning milliy koloriti yodgorlik yoki majmua hududining ko'kalamzorlashtirilishida namoyon bo'lishi kerak.

Ko'kalamzorlashtirish bo'yicha alohida holatlar har qanday me'moriy inshootni ko'kalamzorlashtirishda inobatga olinadigan me'yoriy hujjatlarda keltiriladi. Daraxtlar, butalarning birinchi qatori va me'moriy inshoot poydevori orasidagi masofani hisobga olish zarur. O'simliklar ildizlari bino poydevorini yemiradi, yo'lak va yo'llar qoplamini ko'chirib yuboradi (oq akasiya, qora terak va shu kabilar). Buxoroda Labixovuz maydoni bunga misol bo'la oladi, uning atrofida oq akasiya, tut, yapon saforasi, yashil shumtol o'sgan, ularning ildizlari bino poydevorini yemiradi, yo'lka va yo'llar qoplam yuzasini ko'chirib yuboradi. Taklif etiladi: yapon saforasi, tut, terakning bir turi bo'lgan turangi ko'kterak, oq tol (egilgan turi).

Ko'pincha tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda va muhim tarixiy-me'moriy yodgorlik va majmualarni tiklashda e'tiborga olinmaydigan tashqi obodonlashtirishning elementlaridan biri yo'lning yuza qoplamalaridir.

Arxitektura yodgorliklari ko'p bo'lgan shaharlarda keng tarqalgan yo'l qoplamasi xom ashyosi, odatda, asfalt. Tabiiy toshni to'shash samaraliroq va mustahkamroq, chunki u tarixiy topografiyani tabiiy kuchlar ta'siridan buzilishini qanday saqlasa, odamlarning ommaviy kelib-ketishidan ham xuddi shunday saqlaydi. Oxirgi yillarda qadimiy yodgorliklarga ega shaharlarga sayyohlar intensiv ravishda kelib ketyapti, shuning uchun obodonlashtirish elementlarining joriy qilinishi arxitektura yodgorliklari va qadimgi landshaftning saqlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Tarixiy-me'moriy majmualar hududini ko'kalamzorlashtirish xarakteri ularning funksional, kompozision va stilistik xususiyatlariga

muvofig kelishi kerak. Ko'chalar ko'kalamzorligining an'anaviy usullari ko'p hollarda tarixiy inshootlar ekspozitsiyasini inobatga olgan holda bir holdan ikkinchi holga o'zgartirilishi kerak. Tarixiy shaharlarda shaharsozlik loyihalashtirish masalalari alohida dolzarb tus oladi, ayniqsa shaharlar hududida xavfsiz va qulay piyodalar harakati va qo'riqxonahududlarida transport harakatini tashkil qilish.

Arxitektura yodgorliklarining ko'kalamzorlashtirish bilan ijobiy birikuvining yaqqol misoli me'morial yodgorliklardir, bular: Chor Bakr va Naqshbandiy majmualari atrofidagi shahar tashqarisi zonalaridagi maqbaralardir. Arxitektura yodgorliklari va shahar tashqarisidagi saroylarni, masalan, Samarqanddagi Ishratxonani ko'kalamzorlashtirishda ularning ulug'vorligi va serhashamligini namoyon qilish zarur. Bu me'moriy inshootlar atrofida odatda xiyobon va istirohat bog'lari tashkil qilish kerak. Tantanali, parter qismi odatiy uslubda ko'kalamzorlashtiriladi, yo'llar va gulzorlarni o'rab turuvchi butalgan to'siqlar, shar ko'rinishidagi shaklga keltirilgan daraxtlar, gazonlar fonidagi yorqin gullar. Qolgan joylar xotirjamlik va shinamlik yaratuvchi baland tanali shar shaklidagi daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtiriladi. Hamma hollarda ham ko'kalamzorlashtirish me'moriy inshootlar bilan qat'iy uyg'unlikda bo'lishi kerak. Nihoyat har qanday me'moriy inshootni joyning injener-geologik sharoitlarini hisobga olib, ko'kalamzorlashtirishda inobatga olinishi zarur bo'lgan alohida holat va maxsus uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari daraxtlar, butalarning birinchi qatori va me'moriy inshoot poydevori orasidagi masofani hisobga olish zarur [33].

Tabiiy tosh to'shamaning qo'llanilishi, albatta, samarali va mustahkam, ammo bu ayniqsa, katta yuzalarni qoplashda ta'mir ishlarining narxini oshiradi. Tosh to'shamaning qo'llanilishi doim ham arxitektura yodgorligini ta'mirlashda yoki shaharning eski qismini qayta tiklashda, ishning yuqori texnik va badiiy sifatini kafolatlamaydi, shuning uchun uni qo'llash, shuningdek to'shama turi, ko'rinishini tanlash asosli ravishda bo'lishi kerak.

Keyingi yillarda tarixiy shaharlarga sayyohlarning kelib-ketishi qizg'in tus olmoqda, shu sababli mustahkam va chidamli obodonlashtirish elementlarining joriy qilinishi yodgorliklar va qadim landshaftning saqlanishida katta ahamiyatga ega. Odatda, qadimiy shaharlarga kelgan sayyohlar tuproq qurg'onlarni tashqaridan tomosha qilish bilan cheklanmay, ularning yuqorisiga chiqadilar, ammo

shaharning qal'a devori ustida yurish ularning sekin-asta vayron bo'lishiga olib keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy yoritish uskunalarining standart shakllari yodgorlikni tomosha qilishning real sharoitlarini inobatga olmay loyihalanishi keng tarqalgan xatolik hisoblanadi. Shahar maydoni va ko'chalarda, shuningdek noyob arxitektura yodgorliklari atrofida ularning noto'g'ri joylashtirilganligini sezish mumkin. Yoritish uskunolari va ko'cha ustunlari ko'pincha me'moriy majmualarni har tarafdan ko'rish uchun zarur bo'lgan ochiq fazoni to'sib qo'yadi. Tarixan yuzaga kelgan shaharlar rejasi va qurilish loyihalarini tuzishda elektr tizimlarini yer osti transheyalarida o'tkazishning zamonaviy usullarini keng qo'llash kerak. Yoritish uskunalarini o'rnatish esa yodgorlikni idrok qilish sharoitlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Qadimiy shaharlarning tarixiy yuzaga kelgan joylarini qayta tiklash va yangilashda muhim muammolardan biri tarixiy-me'moriy yodgorliklar va majmualar hududidagi mavjud ko'rish mavdonchalarini tozalash va obodonlashtirishdir.

Tarixan shakllangan shaharlar zamonaviy holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatiga arxitektura yodgorliklari bilan yonma-yon joylashgan tartibsiz qurilmalarning ko'pligi xarakterlidir. Bu esa shaharni tomosha qilishni qiyinlashtiradi, uning estetik sifatini tushiradi, bunda ko'pincha landshaft san'atining elementar asoslari, yodgorliklarning kompozitsiyaviy xususiyati va xarakteri inobatga olinmaydi. Tarixiy shaharlardagi eng keng tarqalgan turi qatorlab ekishdir, bu ko'p hollarda tarixiy majmuani, yodgorliklarni qiziqib qurish burchaklarini berkituvchi, qadim me'morchilik xususiyatlariga muvofiq kelmaydigan yaxlit to'siqdir [32].

Muhim tarix va san'at yodgorliklariga ega shaharlar ko'kalamzorlashuvi va obodonlashuvi shaharlar bosh rejaları, yodgorliklarning ta'mir loyihasidan boshlab ekin turlarini tanlashgacha bo'lgan loyihaviy xujjatlarni ishlab chiqishning hamma bosqichlarida inobatga olinishi kerak bo'lgan alohida o'ziga xoslikka ega bo'lishi zarur.

Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishning an'anaviy usullari qator hollarda tarixiy inshootlar ekspozitsiyasini inobatga olgan holda o'zgartirilishi kerak. Tarixiy-me'moriy majmualar hududini ko'kalamzorlashtirish xarakteri ularning funksional, kompozitsiyaviy va stilistik xususiyatlariga muvofiq kelishi lozim. Tashqi obodonlashtirish elementlarining joylashishi, shakli, xom-ashyosi va fakturasi arxitektura

yodgorliklarining yoshi, kompozision qurilishi, stili va idrok etish sharoitlarini inobatga olib belgilanishi kerak; ko'p hollarda bu elementlar neytral, sezilmas xarakterga ega bo'lishi kerak.



Ma'lumki, tabiiy landshaft sharoitlari aholini joylashtirish uchun joy tanlashda va shaharsozlik tuzilishining yuzaga kelishidagi hamma bosqichlarida muhim belgilovchi rol o'ynagan. Shahar rejasidagi asosiy shaharsozlik tugunlarining o'rni, bosh magistrallarning yo'nalishi, ko'chalar tizimi birinchi navbatda tabiiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan.

Qadimda relyef xarakterini bo'rttirish uchun tik va yirik inshootlar baland ko'tarilgan joylarga, yuza maydonning sinish nuqtalariga joylashtirilgan holda ularning ahamiyatini kuchaytirish uchun foydalanganlar. Majmua va inshootlarni atrofdan, qulay nuqtalardan, masalan, suv havzalari (daryo, ko'l) tomoniga shaharlar, maydonlar, qal'alar bosh ko'rinishi manzarasini qaratgan holda yaratish imkoniyatini ham inobatga olganlar [18].

Shaharni o'rovchi landshaft, shahar fazoviy oqimining rivoji yoki shahar manzarasi va silueti uchun fon bo'lgan holda shaharsozlik tizimi kontekstiga mos tushgan. Masalan, Samarqand majmuasini qor bosgan tog'lar bag'ridan chiqarib tashlash mumkin emas.

Tabiat o'z elementlari va g'ayri tabiiy inshootlari bilan birgalikda shahar landshafti deb nomlanuvchi ajralmas yaxlitlikni yaratgan holda shahar ichiga kiradi. Shahar manzarasiga tepaliklarning yam-yashil qiyaliklari va suv havzalarining qirg'oqlari, baland o'suvchi o'simliklar maydonlari ham faol kiradi. Shahar ko'rinishlarini odatda akvatoriyaalar boyitadi. Shaharsozlik muhitiga tabiatning boshqa elementlari (Samarqand, Buxoro, Shaxrisabzdagi bog'lar va qal'a saroylari) kirishi joiz. Tabiat elementlarining shahar qiyofasi ifodaviyligiga samarali ta'sir ko'rsatishi bilan, har qanday ijobiy yaratilgan landshaft shahar badiiy o'ziga xosligiga erishishining muhim manbai hisoblanadi. Uning bu roli shahar manzilgohlari obrazli xususiyatlarining yo'qolishi yoki kambag'allashuvi xavfi tug'ilganda me'morchilikni standartlash va tipiklashtirish davrida ayniqsa muhimdir.

Shaharsozlik tizimlarining tarixiy shakllanishi shaharning tabiiy va tarixiy muhiti o'rtasidagi, tabiiy elementlar va me'moriy inshootlar parametrlari o'rtasidagi ma'lum miqdoriy va nisbiy munosabatlari asosida yuzaga kelgan. O'zining o'lchamlari va masshtabi bo'yicha binolar balandligi, ularning massasi, ko'lami, vertikal va gorizonta bo'linishlari bo'yicha me'moriy inshoot landshaft elementlari bilan (suv havzasi bo'ylarida) muvozanatda bo'lishi, tabiiy elementlarga bo'ysunishi yoki ularni ko'rinishdan xalaqit qilishi mumkin. Aniq shahar uchun landshaft elementlari va me'morchilikning tipik, an'anaviy

munosabatlari boshqa omillar bilan birgalikda shaharsozlik majmuasini uning fazoviy yechimini, shaharsozlik nisbatini his qilishda bizning



8-rasm. Kam qavatli turar-joylarning landshaft yechim ko'rinishlari
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

idrokimizni shakllantiradi. Me'moriy inshootlarning o'lchamlarini tartibga solish bilan, tabiiy elementlar bilan u yoki bu munosabatlarga va turli natijalarga erishish mumkin: mavjud nisbatni saqlab qolish yoki uni u yoki bu tomonga o'zgartirish mumkin. Shubhasiz, tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash sharoitlarida shahar majmuasi aynan uning tiklanishiga mo'ljallangan taassurotni olish maqsadida an'anaviy munosabatlarni tutib turish zarur. Ammo hamma hollarda ham arxitektorlarga, mavjud yetakchi shahar majmualari bilan, tarixiy tugunlari bilan va eng avvalo tarixiy markazlar, savdo-ma'muriy maydonlar bilan, shuningdek Registon maydoni majmualari bilan, madrasa hajmlari bilan va boshqa "qo'zg'almas" inshootlar bilan hisoblashishga to'g'ri kelgan [28].

Respublikadagi mavjud iqtisodiy holat hamma tarixiy shaharlarda ham yangi bosh reja bo'yicha faol qurilish olib borish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun turli shaharlar turli darajada o'zgarishlarga duch keldilar, ba'zi hollarda ularning muntazam holati saqlanib qolgan, boshqa hollarda qisman qayta qurishlar, uchinchi holda yangi yaxlit shahar majmualari yaratilgan.

Shunday qilib, qadimgi shaharlarning zamonaviy tarixiy tuzilishida turli davrlar elementlari, har xil vaqtlar shaharsozlik sistemalari elementlari ko'rib chiqilishi mumkin, shaharning bunyod etilish vaqtidan

to hozirgi vaqtgacha. Shahar rejaviy tuzilishini o'rganish, asosan, ikki yo'nalish bo'yicha, ya'ni, arxiv qidiruv va tadqiqot ishlarida olib boriladi.

2.2. Samarqand shahrida kam qavatli turar-joylar tizimining mikroiklim muhitini tashkil etish usullari

Samarqand shahrining iqlimi issiq va quruq subtropik iqlim hisoblanadi. Yozning jazirama quyoshli issiq iqlimi va chang-to'zonli shamollar shaharda qulay mikroiklim muhitini yaratish uchun asos hisoblanadi. Bu esa birinchi navbatda turar-joy muhitining jamoaviy-fazoviy strukturasi ko'klamzorlashtirilgan va suv havzali ochiq maydonlarni (hovlilar, maydonlar, yarim ochiq yozgi xonalar, ayvon, voish, shiypon va soya soluvchi inshootlar)ni keng qo'llashga imkon yaratadi.

Turar-joy (mahalla) muhitida jamoaviy-fazoviy strukturada mikroiklim muhitini shakllantirish tajribasi O'rta Osiyo shaharlarida olimlar tomonidan bir necha marta o'rganilgan va tadqiq etilgan. Ammo, bu tadqiqotlar umumshahar markaziy maydonlari, hovlilar, mahalla, guzar jamoaviy muhitiga nisbatan emas, balki qishloq aholi punktlari yoki bog'lar, istirohat bog'lari, ba'zan shaharlarda ochiq bo'shliqlariga oid olib borilgan. O'zbekiston tarixiy shaharlarining yangi va eski qismlaridagi bizgacha saqlangan mahalla markazlarida mikroiklimiy o'zlashtirish negizlari haligacha tadqiq qilinmagan.

Optimal mikroiklim muhitini aniqlash uchun turli loyihaviy va fazoviy yechimga ega, tarixiy ahamiyatga molik mahalla jamoaviy markazlarida olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy turdagi turli mahalla markazlarining o'lchov natijalari bilan solishtirilgan. Zamonaviy turdagi turli mahalla markazlari shartli ravishda ikki guruhga bo'lingan: mahalla tipidagi ommaviy kam qavatli turar-joy uylari; asosiy qismi palapartish o'zbilarmonlarcha usulda qad ko'targan mikrorayon tipidagi ko'p qavatli uylar.

Tadqiqot davomida ushbu obyektlarning har bir tipida, soya tushadigan va insolyasiya nuqtalarida, jamoat binolari devorlari yonida, daraxtzorlar atrofida, ayvonlar soyasida, ochiq maydonlarda va hovuzlar yonida bir kunda bir necha marta havo harorati, uning nisbiy namligi, havo harakati o'lchandi. Iqlimi qulay zonalarini aniqlash maqsadida jamoat markazlaridagi sharoitlarni bioiklimiy aniqlash usuli qo'llanildi.

Tarixiy tuzilishga ega turli loyihaviy turdagi mahalla markazlarining (ya'ni yopiq, yarim yopiq va ochiq loyihaviy strukturalar) mikroiqlimiy o'lchov natijalarini o'zaro solishtirish shuni ko'rsatdiki, yopiq loyihaviy tuzilmalarda hovlini gorizontal va vertikal shamollatish bilan ta'minlangan yarim yopiq tuzilmali obyektlarda mikroiqlimiy sharoitlar qulay ekan.

Tarixiy tuzilishga ega mahalla markazlari kichikroq hududga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning maydoni bevosita odamlar tomonidan foydalaniladi. Hovuz qirg'oqlari bo'ylab ekilgan baland, ko'p yillik, keng hajmli daraxtlar: chinor, qayrag'och, terak, ba'zan yong'oq daraxti, keng ayvonlar, shiyponlar hudud bo'shlig'ining asosiy qismini egallaydi va kompleksda quyuq soyani tashkil etadi. Bunda hovuzlar katta ahamiyatga ega, ya'ni suv va soya qonuniga rioya qilish juda katta ijtimoiy va ekologik samara beradi [32].

Qadimda suvni saqlash vazifasini bajargan hovuzlar kun davomida nam havoni va past haroratni saqlab turish imkonini yaratgan. Hozirda qadimgi hovuzlar ba'zi joylarda saqlangan. Ular suvni saqlash maqsadida emas, balki salqin havoni yaratish manbai sifatida saqlangan. Hovuzlar havoni namlik bilan boyitib, maishiy qulaylikni oshiradi. Bundan tashqari, suv yonida havo haroratining pasayishi natijasida aerasiyaning ko'chayishiga ham qulay sharoitlar yaratiladi. Mahalla markazlarida o'rta haroratning oqimi shahar harorat oqimidan ancha past va quyoshning qizituvchi nuri inson uchun qulay harorat chegarasidan oshmaydi.

Zamonaviy uy-joylar muhitida mahalla markazlarining mikroiqlimiy xususiyatlarini tadqiq etib, ularning mikroiqlimiy aniqlanish bo'yicha ko'pgina hollarda tarixiy komplekslarga yaqinligini qayd etish mumkin. Ularda odatda vohali zona, suv purkagichli qurilmalari mavjud hovuzlar, hovli hududida oqib o'tadigan sug'oruvchi ariqlar, uning qirg'oqlarida esa keng hajmli daraxtlar mavjud. Fazoviy-kompozitsiyada soya soluvchi shiyponlar va ayvonlar qo'llanilgan. Natijada soya salqin hosil qilish, ko'kalamzorlashtirish, inshootning yopiq va ixchamlilik imkoniyatlari yuzaga keladi, bu esa hududda umumiy soyaning davomlilikiga va haroratning pasayishiga olib keladi. Bu obyektlarning ko'rsatkichlari bioiqlimiy sharoitlar bo'yicha havoda namlikni oshirishi va aerasiyaning ko'paytirishi hisobidan qulaylik tug'dirish darajasiga ega. Ammo, bu komplekslarning ba'zilarida havoning nisbiy namligini oshirishga yordam beruvchi ko'kalamzorlar

kuzatilmaydi, bu esa havoning qizish vaqtida baland haroratda noqulayliklarga olib keladi [33].

Qurilishning ikkinchi guruhiga (mikrorayon turi) taalluqli bo'lgan zamonaviy mahalla jamoaviy markazlari uncha yaxshi bo'lmagan mikroiqlimiy sharoitlarning yaqqol misolidir, ularni loyihalash usullari tarixiy vositalar va qurilishlarning birinchi guruhidan tubdan farq qiladi. Ular birinchi navbatda katta o'lchamlari bilan farqlanadilar. Bu yerda soya soluvchi ko'kalamzorlashtirishning ahamiyati katta emas. Bu uylarda yashovchi aholining o'zlari yaratgan gulzor va maysazonlari ko'p suv sarflanishini talab etadi, bu esa qavatli turar-joylar uchun yangi tumanlarda ko'p qiyinchilik tug'diradi. Buning natijasida, ular quyosh radiyasiya miqdorini biroz kamaytiradilar xolos va mahalla markazida mikroiqlimni yaxshilash usullariga unchalik ta'sir etmaydi. Atrofdagi ko'kalamzorlarning zich bo'lmaganligi umumiy hududning yetarlicha soyalanmasligi va kerakli namlikning bo'lmazligiga olib keladi, natijada, juda og'ir, baland haroratli sharoitlar yuzaga keladi. Ochiq maydonlar, kam soya soluvchi ko'kalamzorlar bioiqlimiy sharoitlarning salbiy baholanishiga sabab bo'ladi. Natijada turg'un noqulay sharoitlar yaratiladi va ularga barham berish na suv purkagichli qurilmalar yordamida, na shamol tizimini oshirish bilan yechilmaydi.

Tarixiy va zamonaviy mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasining turli ko'rinishlarida mikroiqlimiy muhitni yaratish sharoitlarini o'rganish bir tomondan ochiq hududlar o'lchamlari va maydonini, ikkinchi tomondan hududni soyalashtirish orasida kompleksli bog'liqlik mavjudligini aniqlandi. Mahalla markazlari uchun bu kompleksli bog'liqlikning ma'nosi shundaki, ochiq hududlarning maydoni va o'lchamlari qanchalik katta bo'lsa, umumiy soyalanish maydoni shuncha kamayadi. Va aksincha, ochiq hududlar va maydonlar kamayishi bilan soyalanish koeffisienti oshadi.

Mahalla jamoaviy markazlarining arxitekturaviy-fazoviy yechimi ular maydonlarining kattalashishi bilan ro'y beradi, biroq bunda kichikroq yopiq muhitlar ham bo'lishi mumkin.

Tarixiy hosil bo'lgan mahalla markazlari arxitekturasiga qurilishining birinchi guruh strukturasiga katta hududlarning bo'lishi xos emas, bu esa ular muhitida mo'tadil namlikni saqlashga imkon beradi. Qurilishning ikkinchi guruhida jamoat markazlarining soyalanishi ko'pincha me'moriy shakllar yordamida amalga oshadi, bunda


ko'kalamzorlarning kamligi seziladi. Ochiq hududlar maydoni katta bo'lib, havo namligi kamayishiga olib keladi.

Tarixiy va zamonaviy mahalla jamoaviy markazlari mikroiklimiy o'zlashtirish tajribasini o'rganish, loyihalash uslubini va fazoviy-kompozitsion xususiyatlar mikroiklim muhitini yaratuvchi sharoitlarni, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishlarni solishtirish shuni ko'rsatdiki, yopiq loyihalangan strukturaga ega tarixiy mahalla markazlarida qulay sharoitlar mavjud ekan, ya'ni u yerda jamoat va piyodalar yo'llari muhiti kompozitsiya usullarining an'anaviy yechimi, hovuzlar, keng ayvonlar, dolonlar, shiyponlar va zich ko'kalamzorlar mavjud.

Shunday qilib, yopiq va yarim yopiq loyihaviy strukturasi yetakchi bo'lgan inshootlarning mahalla tipidagi birinchi guruhi, zamonaviy kichik me'moriy ansambllar o'zining mikroiklimiy tasnifi bo'yicha tarixiy komplekslarga yaqin ekan.

Ochiq loyiha strukturasi ustun bo'lgan qurilmalarning ikkinchi guruhi (ko'p qavatli mikrorayon turi) dagi zamonaviy kichik me'moriy ansabllar esa noqulay sharoitlarda joylashgan.





9-rasm. Kam qavatli turar-joylar tizimining mikroiklim muhiti
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

Qulay mikroiklim muhitini yaratishning tarixiy tajribasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, "mag'ok" tipidagi qadimgi kichik me'moriy ansambllar (jamoaviy-diniy komplekslar)ning ahamiyatini ta'kidlash lozim. "Mag'ok"dagi harorat va namlik rejimlarini maxsus o'lchash va ularni yerning umumiy yuzasida mikroiklimiy aniqlash ma'lumotlari bilan solishtirganda "mag'ok" foydasiga katta farq borligi qayd etildi. Ya'ni, mag'okdagi mikroiklimiy sharoitlar qulaylik talablariga maksimal darajada javob beradi. Tadqiq etilayotgan mahalla markazlari va ularning ayrim binolarini yer ostida chuqurroq joylashtirishning me'moriy-iqlimiy muhitni yaratish va yaxshilash maqsadida qilinganligini isbotlamoqda [18].

Mahalla markazlarining har bir turida mikroiklimiy xususiyatlarni aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, havoning qizib ketishiga qarshi himoya vositalari va elementlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq ekan. Buning ma'nosi shundaki, mikroiklim muhitini yaratuvchi element va vositalardan foydalanish

samaradorligi va ochiq maydonlar hajmlari orasida bevosita proporsional bog'liqlik mavjud. Ushbu element va vositalarga quyidagilar kiradi:

- yopiq loyihaviy tizilmali ixcham qurilmalar yordamida ochiq maydonlarni chegaralash va hovlini gorizontal shamollatish sharoiti bilan ta'minlash;

- mahalla markazi hovli hududini shaxtasimon qurilmalar bilan vertikal shamollatish, havo konvensiyasi sharoitlari bilan ta'minlash;

- mahalla markazining ochiq maydonlarini ko'kalamzorlar, keng ayvonlar, dolonlar va boshqa turli soya soluvchi qurilmalar, shiyponlar yordamida soyalatishni hisobga olish;

- suv purkagichli qurilmalar, sun'iy sharsharalar va boshqalarni qo'llash orqali suv bilan ta'minlash va ko'kalamzorlashtirishning an'anaviy usullari yordamida "voha zonolari"ni yaratish;

- yer ostining salqinlatuvchi xususiyatlarini mahalla markazi binosi yoki hovlisini yerda chuqurroq joylashtirishda qo'llash.

Shunday qilib, ushbu paragrafda o'tkazilgan tadqiqotlarning asosiy natijasi, bu kichik mahalla markazlari arxitekturasida mikroiqlimiy muhitni yaratuvchi vosita va qurilmalar, bu vositalarning negizlari va ta'sir samaradorligi, foydalanish vaqti, binoning orientasiyasi va mahalla markazining me'moriy-loyihaviy turiga ko'ra ularni qo'llash samaradorligiga erishish bo'ldi.

2.3. Kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining badiiy-me'moriy va landshaft xususiyatlarning estetik qadriyatlari

O'zbekiston xalq me'morchiligining estetik madaniy qadriyati o'rganilgan va adabiyotlarda bir necha marta yoritilgan. Tarixiy tizilishga esa mahalla jamoaviy markazlarini tashkil etishda bu qadriyatlarning asosiy komponentlaridan biri – bu arxitekturaviy-badiiy usullar ekanligi ma'lum.

Estetik qadriyatlarning muhim elementlaridan biri bu – mahalla jamoaviy markazlarining arxitekturaviy-konstruktiv qismi bo'lib hisoblanadi. Bu qismlarning tugallangan kompozisiyalari markaz binolari qurilishiga yorqin namoyon bo'lgan yunon orderlari to'g'risidagi so'zlarni tasdiqlaydilar. Ular ko'taruvchi va ko'tariluvchi elementlarni joylashtirish tartibiga binoan aniqlanadilar. Bu konstruksiya me'morchilik amaliyotida ustunli-to'sinli tizim nomini egallagan. Uning

xarakterli belgisi bo'lib, modulni qo'llash asosida qismlarning mutanosibligi va qurilmalarning proporsionalligi hisoblanadi.

Yog'ochdan ishlangan xushbichim, nafis ustunli keng, baland ayvonlar haqiqiy san'at asari namunasidir. Order boshlanish, o'rtaliq va tugal qismlardan, ya'ni takkursi, asos, ustun va antablimentdan iborat. Mahalla markazi ustunining asosi bo'lib yuqori qismli pishiq g'ishtli, pastki tomoni tabiiy toshdan qilingan yoki butunlay pishiq g'ishtdan qilingan podium hisoblanadi. Stilobatning yuqori tekisligi gorizontall qilingan. Unga ochiq zinapoya eltadi. Jamoat komplekslarining stilobatlari 2 metrgacha balandlikka yetadi, shu bilan birga turar-joy uylaridek balandligi atiga 30-40 sm ni tashkil etadi. Stilobatda 1 yoki 2ta ustun joylashib, ular 3 qism, ya'ni, asos, ustun va tugallanish qismidan iborat. Asos ustida yumaloq yoki ko'p qirrali ustun joylashib, u to'sin ostida yumaloq yoki o'ziga xos shakl bilan tugallangan. Ba'zan to'sin ostida kapitell ham joylashgan, ammo mahalla markazi ustunlari uchun "bosha" bo'lishi xarakterli. Ustun ustida katta qismlar – bosha, ustun, qosh va tom joylashgan [18].

Orderga xos belgilar mahalla markazlarining boshqa binolarida ham, asosan masjidida, ayvonda va madrasada ham kuzatiladi. Bu yerda biz ustunli-to'sinli konstruksiyaning ham, uning muhim qismi bo'lgan ustunning ham 3 qismga bo'linganligini ko'ramiz. Konstruksiya toza holda qoldirilgan va ifodalanish vositasi bo'lib hisoblanadi. Ko'taruvchi qismlar qarama-qarshi qo'yiladi.

Ustunlar va ularning detallari o'zining kompozitsiyasi jihatidan qiziqarli. Ular puxta ishlab chiqilgan, yuzasi a'lo darajada bezatilgan. Odatda, ular mahalla markazi binolari elementlari orasida ustunlikka ega. Bu detallarni yaratar ekan, ustalar ularni san'at darajasiga keltirgan.

Bosha (ustunning tugallangan qismi) konstruksiyasi bo'yicha ustun ustida to'sinlarni tutashtirishga xizmat qiladi. Bosha konturini teskari o'girilgan trapesiyaga o'xshatish mumkin. Undagi o'rtacha rangdagi rasm yorqin, rangli naqshinkor shift bilan past rangli ustun o'rtasidagi bog'lanishdek fazoviy maqsadga javob beradi. O'ymakorlikka boy bezatilgan ustunda rangli yechim bo'lmaganligiga qaramasdan, u shift rasmi bilan o'xshash.

Bu xalq ustunlarining yuksak mahorati va nozik badiiy dididan dalolat berib, ustunli-to'sinli tizimining konstruktiv va badiiy yechimi borligini bildiradi.

Funksional jihatdan boshalar kapitellar bilan o'xshash. Kapitellar boshalarning me'moriy-badiiy ahamiyatini kuchaytiradi, hajmiy-fazoviy xarakterdagi vazifani bajaradi, ammo ular konstruktiv ahamiyatga ega emas. O'ymakorlik yoki yig'ma kapitellar boshalar ostida joylashadi va mahalla markazlarida me'moriy obidalarda noodatiy va qiziqarli shakllarga ega bo'ladilar [32].

Buxoro shahridagi Kafishlad masjididagi o'ymakorli kapitell yumaloq ustundan boshaning to'rtburchak chiziqlariga o'tish vazifasini bajargan, bunda bu vazifa juda nozik bajarilgan. Aylanadan kvadratga o'tish bir necha qator barglar tomonidan amalga oshirilgan. Dastlab qator barglar, ya'ni stalaktidlar ustunni to'liq egallaydilar, keyin ular faqat burchak qarshisida qoladilar va har bir qator bilan bitta bargga kamayadilar. Shunday qilib, bir necha joylarda kesimlarning ortishi (kelgusi kvadrat burchaklarida) kuzatiladi. Boshqalarda o'lcham avvalgiday qoladi. Bu esa aylanadan kvadratga o'tishni ta'minlaydi. Shunday rolni yig'ma kapitellar ham o'ynaydilar, ularning tuzilish negizi turli kesim va balandlikdagi ayrim xodalarni uyg'unlashtirishdan iborat. Ustun asosiga xodalarni, eng uzunidan boshlab, eng kaltasi bilan tugallab, asta sekin terib chiqishi bilan me'morlar hajmlarning sekin-asta ortishiga ega bo'lganlar. Har bir keyingi qator o'zidan oldingi qatorni shunday yopganki, ularning faqat pastgi qismi ko'ringan. Bu ko'ringan qismga barglar yoki boshqa naqsh ko'rinishida badiiy ishlov berilgan. Bunday negiz stalaktitli karniz asosida ham yotadi, birdan-bir farqi bu yerdagi detallar miqdori karnizning uzunligiga bog'liq va ular devordan shiftga o'tish uchun xizmat qiladilar.

Ilk qarashda bu murakkab shakl qurilish negizi bo'yicha ham, bajarilishi bo'yicha ham oddiy ekanligi ko'rinayapti. Bu komponentlar konstruktiv jihatdan aniq bir vazifani bajarmasalar-da, yuqorida qayd etilganidek, tanlangan tonlar va naqshlar bilan ular shift bilan birlashganlar, ularning kompozitsiyasi tarkibiga kirganlar.

Boy relyef, yorqin naqshlar shiftni, devorlarning oq yuzasi fonida, nafis relyefi va nozik tonlari bilan ajralib turadi. Shu sababli ayvon va yopiq xonalar me'morchiligida shift muhim o'rin egallaydi.

Mahalla markazi binolari arxitekturasida shiftlarning turli tiplari ko'pligiga qaramasdan, ularni konstruktiv yechim birlashtiradi. Konstruksiya shiftning badiiy shakllari yechimi uchun asos bo'lib hisoblanadi. U juda oddiy va yog'ochli yopma klassik yechimidan iborat; ustunlarga to'sin qo'yiladi, to'sinlar ustiga balkalar qo'yiladi, balka

ustida $d=6-12$ sm bo'lgan, yarim silindrik silliq randalangan xodachali vassa qo'yiladi. Bu vassachalar bir-birlariga yarim aylana yuzasini pastga qaratib zich qo'yiladi, ularning ustidan qamish joylashtiriladi. Ularning usti loy bilan shuvoqlanib, shuning ustiga yassi loyli tom yopiladi. To'sin ustidan xodalarning uchlari bo'rtib, karnizni ushlab turuvchi kansollarni hosil qiladi [18, 32].

Samarqanddagi Panjob mahalla masjidi ayvoni bunday ayvonning yorqin misoli bo'lishi mumkin. Bu yerda Samarqand masjidlari naqshli shiftlarining deyarli barchalarida uchraydigan bo'yashning qiziqarli qonuniyati ko'rinadi, bu bizlar ko'rib chiqayotgan shiftlarning birinchi tipi. Bunday dekorativ usullar hamda kontrast ranglarni kiritish bilan konstruksiyani jonlantirishga erishilgan.

Tarhda konstruksiya oson o'qiladi. To'sin – qizil rangda, keyingi “qavat” – xodalar qo'shimcha qizil rangda, va nihoyat, vassa – yana qizil rangda. Qo'shimcha sovuq yashil rangni kiritish umumiy koloritning yorqinligini yanada ifodalaydi. Shu bilan birga, bunday shiftga qaraganda, bir muncha yon tomonda joylashagan qizil vassalar yoni va to'sinlarning ko'k yoni ortida yashiringan, va butun shift qurilmaning sarg'ishtir devorlarida yorqin ifodalangan sokin ko'k-yashil kolorit sifatida namoyon bo'lgan.

Shohi Zinda me'morial kompleksining masjid ayvoni misolida bu an'analar juda yaxshi ko'rinadi. Bu yerda to'sinlar ham, xodalar ham, vassa va konsollar ham naqshga boy naqshinkor gilam bilan qoplangan. Ammo, yuqoridagi oddiy misol kabi tarhda umumiylik qizil koloritda yashil xodalarni kiritish bilan konstruksiya aniq bo'lingan [33].

Shiftning bunday rangli yechimini ustaning shu yo'l orqali konstruktiv usullarni ifodalab ko'rsatishi bilan tushintirish mumkin. Ular faqat tasviriy rolni bajaruvchi me'moriy-badiiy usullardan ko'ra ko'proq estetik samara ko'rsatishgan.


Konstruktiv qismlar va me'moriy-badiiy yechimlarning o'zaro bog'liqligini aniqlaydigan shiftlarning ikkinchi tipi – bu konstruksiya va dekor bir-birining vazifasini to'ldiradigan, yagona koloristik yechimni qo'llashga asoslangan. Samarqand shahridagi Muborak masjidining ayvoni bu jihatdan qiziqarli bo'lib, uning shifti bitta koloristik usul bilan yechilgan. Bo'yalmagan to'sinlarga oq xodalar va oqish vassalar qo'yilgan. To'sinlardan xodalarga o'tish ola-bula karniz bilan ifodalangan. Xodalar o'rtasidan kesilgan ultramarin fonida oq naqsh bilan bo'yalgan. Konstruksiya faqat bitta rang bilan bajarilgan. Ammo bu sayoz

yechim soddalik va oliyjanoblik kabi badiiy samara ko'rsatadi. Konstruksiya to'sin shaklini ifodalash yo'li bilan aniqlanadi. Uning burchaklari pastda randalangan va ultramarin bilan bo'yalgan. To'sinlarning yuqori qirralariga ultramarin bilan bo'yalgan nakladkalar qo'yilgan. Shunday qilib, to'sin tarqoq yorug'lik sharoitida yaxshi ko'rinadi. To'sinlar o'rta qismiga ozgina nozik naqsh kiritilishi nafislik ta'surotlarini uyg'otadi. Qo'shni kvadratlardagi to'sinlar qo'shimcha qizil va yashil ranglarga bo'yalgan. Bunday bo'yash shiftning alohida kvadratlarini ajratib, umumiy strukturasini ifodalaydi. Yashil to'sinli kvadratlarda vassa qizil rangda, qizil to'sinli kvadratlarda esa ular to'q jigarrangga bo'yalgan. U rang bo'yicha bir xil emas. Umumiy koloritni saqlagan holda naqsh rasmlarini turlicha qilish bilan katta rang-baranglikka erishilgan. Kichik detallarni turlicha qilish shift naqshiga xos va u katta rang-baranglikni o'zida aks ettirgan [33].

Arxitekturaviy-badiiy yechim va konstruksiyalarning o'zaro bog'liqligini aniqlovchi shiftlarning uchinchi tipi konstruktiv usullar yordamida badiiy-dekorativ qadriyatlarini aniqlashga asoslangan. Bunga misol qilib, shiftlarni bezashda plafonlar – dekorativ qandillardan foydalanish xizmat qiladi. Ularning maqsadi shiftning umumiy kompozitsiyasida bosh badiiy aksentlarni aniqlashdir. Agar bunday shiftga ortogonal proyeksiyada qaralsa, u yassi yuza ta'surotini uyg'otadi, bunda shiftning girix bilan bezatilgan eng chuqur relyefi mustasno albatta. Bunday shiftning umumiy kompozision xarakteri "xuzak" relyefining kiritilishini ifodalaydi. Qandilning umumiy kompozisiya xarakteri shiftning badiiy-konstruktiv strukturasini takrorlaydi. Bu yerda girix kichikroq relyef bilan ko'rsatilgan, butun tekislik esa naqshlar bilan to'ldirilgan.

Misol qilib, Samarqand shahridagi Ruhobodni keltirish mumkin. Bu yerda ba'zi hollarda girix o'simliklar naqshi bilan almashtiriladi. Qandil kichikroq friz bilan o'rab olingan bo'lib, uning ostida ko'pincha yig'ma muqarnasli karniz joylashgan. Shiftning umumiy gammasida har bir qandilda konstruksiya dekorativ naqshlarni ifodalaydi. Bunday holatda, rangning kontrasti ko'k-yashil gamma qizil-jigarrang fonda keladi. Boshqa holatda, ranglari to'qroq holatda ham dekorativ bezak va rangli yechimning kontrasti konstruksiya yordamida ifodalangan.

SAMARQANDNING ESKI SHAHAR QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-
JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY MUHITINI ME'MORIY-LANDSHAFT
TASHKILLASHTIRISH



10-rasm. Kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining kompozitsion estetik qadriyatlari (K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

Mahalla markazlarining ekzotik-madaniy qiymati tasviriy san'at usullarini ta'minlaydi. Quyida ularning xarakterli hususiyatlari va an'alarini ko'rib chiqamiz.

Qur'onda tirik mavjudot tasviri man etiladi, ulamolar buni rassom tirik jonzotlarni tasvirlay turib, Ollohning jonzotlarni yaratish huquqini o'zlashtiradi, ammo unga jon bera olmaydi, deb tushuntiradilar. Bu gunoh, haromdir.

Bu ta'qiqni chetlab o'tish, kam hollarda tirik mavjudotlarni (asosan qushlarni) tasvirlab, rassom qushning bo'yni bo'ylab chiziq tortgan va bu bilan qushning boshi kesilgani hamda uning o'likligini bildiradi [33].

Bu ta'qiq sababli barcha tasviriy san'at naqshinkorlikka o'tgan va u mahalla markazlari hamda mahalla jamoat joylarida binolarning detallarida taraqqiy etgan. San'atning bu turida naqshlarni quyidagicha bo'lish mumkin: fazoviy tarqalishi bo'yicha – chegaralangan, chiziqli va chegaralanmagan; mavzusi bo'yicha – o'simliksimon (islami), geometrik (girix) va yozuviy naqshlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mahalla markazlarining yopiq va ochiq xonalari interyerini bezashda mavzu bo'yicha naqshinkorlikka katta e'tibor berilgan. Samarqand mahalla masjidlari va ayvonlarida devorlar ko'pincha "islami" naqshlari bilan bezatilgan, misol qilib Qo'sh Xovuz mahalla markazini keltirish mumkin. Naqshning bu turi bilan "kunda" naqshi ham o'rin almashgan (suyuq ganj yoki qizil loy ustiga mo'yqalam bilan naqsh solish). Bu naqsh silliq yuzada nozik rang tasvirli relyefni hosil qilgan. Bunga misol qilib, Samarqanddagi Muborak mahalla markazining masjidini keltirish mumkin.

"Girix" geometrik naqshni tadqiq etish uning ko'pincha Buxoro va Shahrisabz mahalla markazlarida qo'llanilganini ko'rsatdi. Bu naqsh teng tomonli uchburchak, kvadrat va beshburchak geometrik shakllari asosida hosil bo'ladi. Bizning tadqiqotlarimiz davomida bizga olti, sakkiz, o'n, o'n ikki, yigirma to'rt burchli nurli girixlar uchradi. Toq sondagi nurli girixlar mavjud emas. Naqshning bunday turi ko'pincha shiftlarni bezashda kuzatiladi. Ularning devorlarda me'moriy chiziqlar tizimi tasvirlangan, ganchli shuvoq bilan kombinasiyasi ko'p kuzatiladi. Bunday bezashda "kirma" zanjiri ganchli mozaikalarning mashhur usullari albatta qo'llanilgan. Bu shakllar naqshning bir elementi sifatida ham, kompozitsiyaning asosi sifatida ham uchrashi mumkin [18].

Yog'ochli yuzalar – daraxtlar, ustunlar, eshik va shiftlarni tadqiq etishda ularda yozuvli naqshlar borligi aniqlandi. Bunday naqshlar ularda shunday odatiy holga aylanganki, nozik o'ymakorlikning turi va naqshi emas, balki uning yo'qligi odamni ajablantiradi. Kam hollarda ular masjid

fasadlari, minoralar ustunlarida qo'llanilgan. Bunday naqsh ikki xil tipda bo'lgan: burchakli arabcha yozuvlar va yumaloq belgilar ko'rinishida. Yumaloq yozuvlardan ko'pincha ayvonlar ustunini bezashda foydalanilgan. Eshiklarni bezashda ikkala usul ham qo'llanilgan. Yog'ochli detallarni o'rganishda, muallif tasviriy san'at nuqtai nazaridan, deraza panjaralarining muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Shishalar tarqalishidan oldin, derazalar eshik yuzalari, ventilyasiya shaxtalari, bino tarzlarida panjaralar keng qo'llanilgan. Naqsh rasmlariga ko'ra ularning ikki turi tasniflanadi: o'simlik va geometrik xarakterli. Bunday panjaralar yelim va mixlarsiz shunday mohir ishlanganki, o'zbek ustalarining shunday katta texnik va badiiy fantaziyasiga tasannolar deging keladi [32].

Tadqiqot o'tkazish davomida mahalla markazlari arxitekturaviy-badiiy bezashda qo'llaniladigan asosiy qurilish materiallari (yog'och va loy) aniqlandi. Tabiiy-iqlimiy omillar ta'sirida tanlangan bu qurilish materiallarining roli nafaqat tasviriy va dekorativ xarakter elementlarini yaratishda, balki mahalla markazining qurilishida ham ahamiyati katta bo'lgan. Yog'ochdan kompleks binolarning eng muhim qismi – konstruktiv sinchni qurish uchun foydalanilgan, ichi loy bilan to'ldirilgan. Bunday sinchlar ichki xonalarni yozda issiqlikdan, qishda sovuqdan himoya qilgan va mahalla markazining seysmik-zilzila bardoshligini oshirgan.

Bunga guvoh o'tgan asr yodgorliklarining O'rta Osiyo seysmik sharoitlarida bizning davrimizgacha saqlanishini keltirish mumkin. Mahalla markazlari ansablari tashkil etishning arxitekturaviy-badiiy va konstruktiv asoslarini o'rganib va tadqiq etib, shuni ta'kidlash lozimki, ular funksional jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan. Naqsh va dekorativ bezak alohida konstruktiv qismlarning rolini ifodalagan, yuk ko'taruvchi va o'zini ko'taruvchi elementlarni aniqlashgan, rangli yechim yordamida o'tuvchi fazoviy zanjir bo'lib xizmat qilgan. Tegishli konstruktiv shakllarni qo'llab, konstruktiv usullar har bir naqshning funksional ahamiyati va qadriyatini ifodalagan detallar birikmasining o'tuvchi vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Bu usullarni qo'llash nafaqat mahalla markazlarini dekorativ boyitgan, balki an'anaviy turar joy qurilmasining bir tipli fazoviy muhitiga ham ta'sir ko'rsatgan. Mahalla markazlari mahalla turar joy qismi estetik markazi roliga ega bo'lgan, bunda mahalla ideologik va

ijtimoiy-maishiy omillar bilan ifodalangan tasviriy-dekorativ san'at, uslub va badiiy obraz muhim o'rin egallaydi.

Hovuz – suv yig'ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy. O'tmishda ular ichimlik suvi saqlanadigan sun'iy suv havzasi rolini ham bajargan. Hovuzning to'rtburchak, aylana, ko'p (6-8) qirrali ko'rinishga ega turlari mavjud. Hovuzlar O'rta Osiyo va Yaqin Sharqning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgan; asosan masjidlar yonida shaharlar maydonlari, bog'lar, chorbog'lar, saroy hovlisi va mahalla guzarlarida bunyod etilgan, qirg'oqlari toshlar yoki yog'ochlar bilan qoplanib, atrofi daraxtlar ekib mustahkamlangan. Hovuzlar favvoralar bilan bog'liq bo'lgan. Hovuzning qadimdan me'morlikda ahamiyati katta. Qadimiy Misrda to'g'ri to'rtburchak shaklidagi hovuz yo'lakning ikki tomonida bunyod etilgan. Keyinchalik me'moriy majmualar ansambllarida hovuzdan unumli foydalanila boshlangan: Agradagi Tojmahal, Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa, Labihovuz, Bolohovuz va boshqalar shular jumlasidan. XVIII-asrga oid yozma manbalarda qayd etilishicha, Toshkentning markaziy maydoni – Registon va Shayhontoxurda eng katta hovuzlar bo'lgan, uning atrofida tut, chinor daraxtlari o'sgan, qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralarda ham hovuz o'z ifodasini topgan. Turkiya me'morchiligida uy devorlariga taqab yarim aylana shaklida bunyod etilgan hovuzlar ham uchraydi. Marmar qoplab ishlangan hovuz bejirim ko'rinishga ega bo'lgan, sirlari ravoqlar, guldastalar, jez panjaralar bilan bezatilgan [32].

Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo'lganligi XIX-asr hujjatlarida qayd qilingan. XX-asrda esa sanitariya talablari bahonasi bilan aksari hovuzlar quritib, o'rniga binolar qurilgan. Hozirda O'zbekiston hududida tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda hovuz (suv, havza)lar bunyod etiladi, ular favvoralar bilan uyg'unlikda ajoyib manzara, so'lim maskanlar hosil qiladi.

II-bob xulosasi

1. Zamonaviy uy-joylar muhitida mahalla markazlarining mikroiklimiy xususiyatlarini tadqiq etib, ularning mikroiklimiy aniqlanish bo'yicha ko'pgina hollarda tarixiy komplekslarga yaqinligini qayd etish mumkin. Ularda odatda vohali zona, suv purkagichli qurilmalari mavjud hovuzlar, hovli hududida oqib o'tadigan sug'oruvchi ariqlar, uning qirg'oqlarida esa keng hajmli daraxtlar mavjud. Fazoviy-kompozitsiyada soya soluvchi shiyponlar va ayvonlar qo'llanilgan.

Natijada soya salqin hosil qilish, ko'kalamzorlashtirish, inshootning yopiq va ixchamlilik imkoniyatlari yuzaga keladi, bu esa hududda umumiy soyaning davomlilikiga va haroratning pasayishiga olib keladi. Bu obyektlarning ko'rsatkichlari bioiqlimiy sharoitlar bo'yicha havoda namlikni oshirishi va aerasiyani ko'paytirishi hisobidan qulaylik tug'dirish darajasiga ega. Ammo, bu komplekslarning ba'zilarida havoning nisbiy namligini oshirishga yordam beruvchi ko'kalamzorlar kuzatilmaydi, bu esa havoning qizish vaqtida baland haroratda noqulayliklarga olib keladi.

2. Tarixiy va zamonaviy mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasining turli ko'rinishlarida mikroiklimiy muhitni yaratish sharoitlarini o'rganish bir tomondan ochiq hududlar o'lchamlari va maydonini, ikkinchi tomondan hududni soyalashtirish orasida kompleksli bog'liqlik mavjudligini aniqlandi. Mahalla markazlari uchun bu kompleksli bog'liqlikning ma'nosi shundaki, ochiq hududlarning maydoni va o'lchamlari qanchalik katta bo'lsa, umumiy soyalanish maydoni shuncha kamayadi. Va aksincha, ochiq hududlar va maydonlar kamayishi bilan soyalanish koeffisienti oshadi.

Mahalla jamoaviy markazlarining arxitekturaviy-fazoviy yechimi ular maydonlarining kattalashishi bilan ro'y beradi, biroq bunda kichikroq yopiq muhitlar ham bo'lishi mumkin.

3. Mahalla markazlarining har bir turida mikroiklimiy xususiyatlarni aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, havoning qizib ketishiga qarshi himoya vositalari va elementlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq ekan. Buning ma'nosi shundaki, mikroiklim muhitini yaratuvchi element va vositalardan foydalanish samaradorligi va ochiq maydonlar hajmlari orasida bevosita proporsional bog'liqlik mavjud. Ushbu element va vositalarga quyidagilar kiradi:

- yopiq loyihaviy tizimlari ixcham qurilmalar yordamida ochiq maydonlarni chegaralash va hovlini gorizontall shamollatish sharoiti bilan ta'minlash;

- mahalla markazi hovli hududini shaxtasimon qurilmalar bilan vertikal shamollatish, havo konvensiyasi sharoitlari bilan ta'minlash;

- mahalla markazining ochiq maydonlarini ko'kalamzorlar, keng ayvonlar, dolonlar va boshqa turli soya soluvchi qurilmalar, shiypolar yordamida soyalatishni hisobga olish;

- suv purkagichli qurilmalar, sun'iy sharsharalar va boshqalarni

qo'llash orqali suv bilan ta'minlash va ko'kalamzorlashtirishning an'anaviy usullari yordamida "voha zonolari"ni yaratish;

- yer ostining salqinlatuvchi xususiyatlarini mahalla markazi binosi yoki hovlisini yerda chuqurroq joylashtirishda qo'llash.

III–BOB.

SAMARQANDNING ESKI SHAHAR QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY MUHITINI ME'MORIY-LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR

3.1. Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me'moriy-landshaftini rivojlantirishning asosiy talablari

Samarqand shahri eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini (keyingi sahifalarda “mahalla markazlari” deb yuritiladi) me'moriy-landshaftini tashkillashtirishda arxitekturaviy-rejaviy tizim va mahalla markazlarining asosiy komponentlari aniqlanishdek asosiy masala yotadi. Bularga arxitekturaviy kompozisiya, hajmiy fazoviy o'lchamlar, funksional zonalashtirish kabilar kiradi.

Mahalla markazlarining tarixiy va zamonaviy rivojlanish amaliyoti ularning qurilishi va regenerasiyasi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi masalalarning yechimini izlashda qo'l keladi:

- madaniy an'analar va tashkil topgan landshaft tizimini inobatga olgan holda kompozisiyaning arxitekturaviy-rejaviy va landshaft yechimini tanlash;

- an'anaviy xizmat ko'rsatish qulayliklaridan foydalanib, mahalla markazlarini joylashtirish va ularning landshaftini tashkillashtirish;

- mahalla markazlaridan boshlang'ich funksiyalar yangi madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy, ekologik va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda foydalanish.

Ushbu tamoyillarni tanlash shaharsozlik munosabatlarida aholiga qulayliklar yaratish va ulardan tejamkor foydalanish, mahallar markazi arxitekturaviy qiyofasini yaxshilash, atrof-muhit va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish strukturasini shakllantirish hamda hududni obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish tadbirlarini olib borish bilan belgilanadi.

Mahalla markazlarini oqilona tashkil etish usullarini topish uchun avvalambor ulardagi mavjud qulayliklarni tiklagan holda kelajak avlodga yetkazish kerak. Bularning barchasi ilmiy tadqiqot usullarida o'z aksini topadi.

Ammo, tarixiy mahalla markazlarida yo'qotilgan ahamiyatga molik jihatlarni tiklangan holda va tarixiy qismlarni qo'riqlash haqida gap ketganda regenerasiya qilish yuqorida keltirilgan prinsiplar, o'zgartirishlar va qo'shimcha alohida izlanishlarsiz amalga oshmaydi.

Bizga ma'lumki, tarixiy obidalarni asrash, ayniqsa hayotiy jarayondagi ma'lum ajralmas qismlarni jamiyat strukturasidan chiqarmagan holda, saqlanayotgan obyektning hayotiy tizimga bog'lash bilan amalga oshiriladi. Har qanday insonni jamoaviy qadr-qimmatga ega bo'lgan madaniy obidalarning vayronaga aylanishi befarq qoldirmaydi. O'z qiymatini yo'qotgan madaniy obyekt uchun vayronaga aylanish odatiy hol (61, s. 53). Aksincha madaniy obyektning boshlang'ich funksiyalari va undan jamiyat ehtiyojlariga mos kelmaydigan holda noo'rin foydalanish bundan ham achinarli ahvoldir [32]. Bundan quyidagi shartlar kelib chiqadi:

- zamonaviy talablar obidaning boshlang'ich kompozision-fazoviy, rejaviy, konstruktiv va arxitekturaviy badiiy tuzilishiga ta'sir qilmasligi lozim;

- yangi berilayotgan funksional belgilar obidaning mahalla markazi zamonaviy muhitiga qo'shilishiga, obidaning madaniy-estetik qimmatiga mos kelishi kerak. U mahalliy aholi turmushi va madaniyati, hamda ijtimoiy hayot tizimiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ko'rinib turganidek, ushbu holatda madaniy obidalaridan oqilona foydalanish muammosi birinchi o'rinda turadi. Faol ilmiy izlanish natijasida obyektning mohiyati keng ommaga namoyon bo'lishi kerak.

Ilmiy tadqiqot jarayonida shaharsozlik tizimidagi mahalla markazlarining jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda joylashishi o'rganiladi. Bunday turdagi talablar rekonstruksiya qilinayotgan obyektning shaharsozlikdagi o'rnini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat ehtiyojlarini bilish, aholining rekonstruksiya tarkibiy qismlariga munosabatini aniqlash lozim. Izlanish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich quyidagi ikki guruhdan tashkil topgan:

- ijtimoiy buyurtma asosida rekonstruksiya maqsadlarini aniqlash. Ya'ni, mahalla markazlari an'anaviy funksiyalarini tadbiiq etish, ularning birlamchi madaniy-marifiy jihatlarini qayta tiklash. Ijtimoiy ehtiyoj birinchi bosqichda – jismoniy parametrlar (maydon, hajm, o'rinlar soni va maishiy xizmat); ikkinchi bosqichda – estetik xususiyatlar majmuasi (kompozitsiya, butunlik, yahlitlik va h.k.) orqali aniqlanadi;

– mahalla markazlarining eng oqilona rejaviy tizimi vazifalarning ko'payishi, rejaviy o'lchamli, ta'sir doirasi, xizmat ko'rsatayotgan mahallalar soni, ulardan aholining foydalanishi va hokazolarning rivojlanishi bilan aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich, galdagi vazifalardan kelib chiqqan holda eskiz va broshyuralar tayyorlash. Eskizlarda hosil bo'lgan muammolarni aks etishdan tashqari xom taklif chizmalar va fotosur'atlar tashkil topishi mumkin. Ushbu eskizlar orasidan tanlanganlari asosida to'lasincha rekonstruksiya loyihasi ustida ishlash boshlanadi.

Bundan mahalla markazlari arxitekturasining qoniqarli funksional jihatlarini aniqlandi. Bular: ma'muriy-boshqaruv, madaniy-ma'rifiy, savdo-sotiq va xo'jalik, sport va sog'lomlashtirish, dam olish va bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish. So'rov natijalarini o'rganishda va ularni tizimlashtirilganda funksional vazifalarga qarab mahalla markaziga mos xonalarning tuzilishi belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

№	Mahalla markazining yangi funksional vazifalari	Xonalar tizilmasi
1	Ma'muriy-boshqaruv	Oqsoqollar maslahati, xotin-qizlar maslahati, yangi massivlarda shirkatlarni qo'shish mumkin
2	Ma'daniy-ma'rifiy	Barcha milliy-an'anaviy vazifalar (madrasa, tahoratxona, xonaqo, minora va boshq.), diniy-ma'rifiy turdagi kutubxona, hunarmandchilik markazlari, yoshlar markazi, ko'rgazmali zal, namoz o'qish xonasi, tarixiy ahamiyatdagi xonalar.
3	Savdo-sotiq va xo'jalik	Kundalik ehtiyojlar uchun kichik turdagi savdo do'koni, Matbuot uyushmasi rastasi, choyxona, nonvoyxona, somsaxona, maishiy xizmatlar (sartaroshxona, kundalik ehtiyojlar va kiyim-kechaklarni ta'mirlash ustoxonasi), mahalla xo'jalik mollari va jamoat anjomlarini saqlash omborxonasi.
4	Sport va sog'lomlashtirish	Sog'lomlashtirish ishlarini olib borish uchun yopiq sport xonasi, sport maydonchasi, tibbiyot bo'limi

SAMARQANDNING ESKI SHAHAR QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-
JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY MUHITINI ME'MORIY-LANDSHAFT
TASHKILLASHTIRISH

5	Dam olish vaqtlarni mazmunli o'tkazish	Hovlili muhit (shiypon, ayvon va boshqa turdagi soya-salqinlik beruvchi kichik arxitektura shakllari)
---	--	---

Shaharning tarixiy qismida joylashgan mahalla markazlarida yashovchi aholining bo'sh vaqtlarini o'tkazish joylari ko'p emas, kinoteatr, kafe-restoranlar ularga yaqin joylashmagan. Bizning mahalla markazi yechimida bo'sh vaqtni maroqli o'tkazishga butunlay boshqa turdagi fikr diniy ma'rifiy hayotga qaytishga, kent turdagi dam olishga, sport va badiiy to'garaklar, san'at va diniy ishlar bilan shug'ullanishga imkon yaratadi. Bunda aholining barcha qatlamlari, yosh-u qarilar ehtiyojlari inobatga olinadi.

Shubhasizki, mahalla markazining ko'p turdagi funksionalligi uning hududini asosiy vazifalariga ajratgan holda funksional zonalashtirishga to'g'ri keladi. Aholiga teng nisbatda xizmat ko'rsatish uchun ilmiy tadqiqot natijalaridan aniqlangan funksiyalar: madaniy-ma'rifiy, diniy, ma'muriy-boshqaruv, savdo-sotiq va xo'jalik, ayniqsa aholi ko'p foydalanadigan bo'limlarga piyodalar yo'laklarini joylashtirishga asoslangan holda zonalashtirish kerak. An'anaviy o'zbek shahrining hajmiy-fazoviy strukturasi yechimini topish shahar hajmiy muhiti, mahalla markazi hajmiy muhiti, hovlili hajmiy muhit va obodonlashtirishning asosiy elementlari bilan yakunlanadi.

Mahalla markazini zonalarga ajratishda namoyon bo'lgan funksional hududlarga ajratish muhim o'rin egallaydi. Bu borada avvalambor inshootning boshlang'ich funksional vazifalarini inobatga olish lozim, sababi, taklif qilinayotgan funksiyalarning inshootning umumiy "sig'imiga" mos kelishi va mahalla markazidagi boshqa elementlar bilan uyg'unlashuvini inobatga olish kerak.

Mahalla markazlarining qarovsiz qolishi ulardagi inshootlar holatining yomonlashishi va buzilishiga olib keldi. Bu esa nafaqat arxitekturaviy-badiiy ekologik jihatlarining yo'qolishiga, balki tarixan tashkil topgan majmua hajmiy-fazoviy va landshaft muhitining qisqarishiga olib keldi. Shuning uchun, regenerasiya ishlarini yo'qotilgan muhitni qayta tiklanishga qaratish kerak.

Bu holatda har bir tashkilot muhitining sig'imi uning jismoniy parametrlariga bog'liq. Ular mahalla markazining xizmat ko'rsatish doirasi, aholi soni va mahalliy demografik xususiyatlarga bog'liq holda tanlanadi.

Tarixiy shakllangan mahalla markazlari regenerasiyasida arxitekturaviy-badiiy, dekorativ va an'anaviy ko'kalamlashtirish va obodonlashtirish qadr-qimmatlarning tiklanishiga katta ahamiyat beriladi. Ushbu holatda badiiy bezaklarning konstruksiya bilan bog'liqligini izlanishdan tashqari mahalla markazini ijtimoiy-ekologik va landschaft estetik markazi sifatida qarash kerak.

Bu o'z o'rnida mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasining ko'p tarmoqli rivojlangan tizimga, dam olish, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy jamiyat, madaniy hayot; ilmiy tadqiqot doirasining kengayishiga, joylashtirish prinsiplarining takomillashishiga, xizmat doirasining aholiga yaqinlashuviga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, taklif qilinayotgan rekonstruksiya "tizimi" aholiga ko'p xizmat qilayotgan obyektlarni ularga yaqinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida tarixiy obidalarga yangi hayot bag'ishlaydi va ularni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Rivojlanishni yuksaltirishda quyidagi asosiy talablarga e'tibor berilishi kerak:

1) funksional – ya'ni, mahalla markaziga talablarning tanlash imkonini beruvchi va tashkilotlar kategoriyasiga qarab hududni zonalashtirish;

2) ijtimoiy – mahalla markaziga an'anaviy xizmat ko'rsatish va madaniy-maishiy xizmat rivojiga imkon beruvchi funksiyalarni kiritish;

3) arxitekturaviy-shaharsozlik va landschaft tashkillashtirish – mahalla markazlariga an'anaviy fazoviy-kompozision, hajmiy-rejaviy masalalarning atrofdagi shaharsozlik muhitiga moslash yechimini topish imkoni. Bu talabning e'tiborli tarafi shundaki shaharsozlikni tashkil etish va xizmat ko'rsatishning rivojlangan metodlaridan foydalanish; mahalla markazining shaharning rejaviy qismida bosqichma-bosqich rivojlanishi; mahalla markazi tarkibidagi bo'rtib turuvchi (dominant) elementlarni ko'rsatish, mahalla markazini esa shaharsozlik muhitidagi o'rnini ko'rsatish; zaruriy hajmiy-fazoviy karkas yaratish; an'anaviy usullardan foydalangan holda yaxlit arxitekturaviy-badiiy qiyofani yaratish – badiiy bezaklarning konstruksiya bilan uyg'unligini ta'minlash; tarixiy malakalarga asosan mahalla markazining ichki muhitida me'moriy-landschaft mikroiqlim talablarini bajarish;

4) iqtisodiy – mahalla markazining jipslashtirilishi va ko'paytirilishi, hosil bo'lgan landschaft yechimi variantlaridan

foydalanish, markaz yechimi uchun mos hudud tanlash nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq yechimga kelish imkonini.

Har bir talabning mohiyatini anglab shuni aytish mumkinki, mahalla markazini tashkillashtirishning asosi birinchi navbatda uning shaharsozlik muhitidagi maxsuslashganligi bilan bog'liq. Natijada yuqori jamoaviy faollik darajasidagi ijtimoiy mavqega ega bo'g'inlar hosil bo'ladi. Bunday obyektlarni takomillashtirishda aholi ijtimoiy-siyosiy faoliyatining turli ko'rinishlari, ommaviy badiiy-san'at, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ko'ngilochar tadbirlarga javob beruvchi elementlarni ta'minlash zarur bo'ladi. Aytilganlarni inobatga olgan holda, monografiya ekspozitsiyasiga mahalla markazining funksional-rejaviy va me'moriy-landshaft yechimi taqdim etiladi.

Mahalla markazining muhim funksiyalaridan biri muhitining jozibadorligi va ko'p jihatligi, ham yakka, ham ommaviy tadbirlar uchun joy va sharoitlar yaratilishi hisoblanadi. Mahalla markazining tashkiliy va tarbiyaviy roli ham bundan mustasno emas. Shuning uchun o'zida ham ruhiy ozuqa, ham ideal muhit jamlanmasi, ham badiiy-estetik qimmatni mujassamlashtiradi. O'z navbatida, mahalla markazining arxitekturaviy-landshaft qiyofasi o'zida estetik did va ehtiyoj, hamda zamonaviy shaharsozlik muhitining sifatlariga xizmat qilishi kerak. Bu obyektning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiradi.

Mahalla markazlarining funksional jamoaviy va strukturaviy takomillashuvining muammoli tarafi shaharsozlik yechimi bilan bog'liq.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mahalla markaziga qo'yiladigan talablarning to'la qondirilishi uning bosqichma-bosqich rivojlanishida amalga oshadi. Bunday strukturaning tuzilishi shahar hududining mahalla-tumanga rejalashtirilishi bilan bog'liq.

Zamonaviy ijtimoiy-maishiy xizmat talablari va Samarqand shahrining shaharsozlik asoslari mahalla markazi tarkibida quyidagi muassasalarning paydo bo'lishiga olib keladi:

- ma'muriy-boshqaruv, o'zida mahalla jamoaviy tashkilotlarini mujassamlashtiradi;

- madaniy-ma'rifiy, o'zida maktab, yoshlar markazi, bu yerda ommabop va badiiy marosimlar uchun muhit yaratiladi va tarbiyaviy ahamiyatga ega uncha katta bo'lmagan memorial hudud yaratiladi;

- savdo-sotiq va xo'jalik, o'zida savdo-sotiq xizmatlarining yangi turlaridan foydalanib, katta bo'lmagan savdo bloklari (minimarket)ni birlashtiradi;

- sport va sog'lomlashtirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi har xil sport turlari bilan shug'ullanish uchun xona va maydonchalarni o'z ichiga oladi;

- dam olish vaqtlarni mazmunli o'tkazish, bunga asosan mahalla markazining jamoat yo'laklari muhiti, qulay sharoit muhitida an'anaviy-mazmunli faol va sokin dam olishni tashkillashtirish.

Ko'rsatilgan har bir muassasa mahalla markazlari rekonstruksiya uchun taklif qilingan xizmat ko'rsatish tarkiblari nomenklaturasini mujassamlashtirish mumkin.


Zamonaviy bosqichda madaniyat va milliy qadriyatlar rivojlanishiga talablarning ortishi kichik mahalla markazlarini arxitekturaviy xarakteri, arxitekturaviy shaharsozlikda sifatli maishiy xizmat masalasining yechimi bilan bog'liqligi, ularning an'anaviy turlarini qidirishga yo'naltiradi. Bunga avvalambor: mahalla markazi mikroiqlim va landshaft muhitini shakllantiruvchi prinsiplar; arxitekturaviy-kompozitsion muhit tashkillashtirishning usullari kiradi.

Shunday qilib, tadqiqot olib borilayotgan obyektlarning fazoviy-kompozitsion qiyofasi va mikroiqlim muhit, landshaft yaratish milliy-an'anaviy qadriyatlarini aniqlash bilan bog'lanadi.

Mahalla markazlarining arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyasi, landshaft va mikroiqlimni shakllantirishga quyiladigan asosiy talablar, tarixiy mahalla markazlarining rekonstruksiya uchun taklif, quyosh nuridan saqlanishni tizimlashtirish usulining natijasi hisoblandi. Shuning uchun yopiq muhitdagi mahalla markazlarini shaharning quyosh nuri ko'p tushadigan qismida joylashtirish tavsiya qilinadi. Bunda mahalla markazlari ko'cha yoki maydonga mustaqil ravishda qo'shiladi; yarim yopiq muhitli mahalla markazlari qurilishning zichligi va ob-havoning issiqlik darajasini inobatga olgan holda ko'chalarning kesishmasida joylashtiriladi; ochiq muhitli mahalla markazlari imoratlar zich joylashgan hollarda qo'llaniladi. Bunday hollarda mahalla markazi ko'chaning kengayishida yoki boshlanishida joylashtiriladi.

Bunday nuqtai nazarda elementlardan samarali foydalanish va quyosh nuridan himoyalaniş mahalla markazlarining ochiq muhiti hajmiga to'g'ri proporsionaldir. Boshqacha qilib aytganda, mahalla markazlarida ochiq muhitning kengayishi mikroiqlim tashkillashtirish vositalarining samaradorligini oshirsa, ochiq muhitni qisqartirish esa, aksincha bu vositalarning samaradorligini kamaytiradi.

Mahalla markazlari arxitekturasining tarixan hosil bo'lgan ko'plab arxitekturaviy elementlari shu qadar o'zlarining yorqin va hayotga zavq bag'ishlovchi jihatlarini namoyon etadiki, zamonaviy qurilish amaliyotida qayta ishlangan holda foydalanish muvofaqqiyat keltiradi. Qadimiy arxitekturaviy-obraz, konstruksiyalardan va yopmalardan foydalanishda, gumbaz sifat, qatlamlar, berk devorlarning ketma-ketligida, yog'och materiallarning (ustun, eshik, ship) faol qo'llanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda konstruksiya va bezaklarning o'zaro bog'liqligini inobatga olish kerak: a) bezaklar va badiiy uslublar yordamida konstruksiyani namoyon etish; b) konstruktiv yechim yordamida bezaklarni namoyon etish; v) badiiy-estetik rejada konstruksiya-bezak, bezak-konstruksiya o'zaro bir-birini to'ldirishi zarur.



11-rasm. Mahalla markazlari muhitining me'moriy-landshaft rivojlanishi
(K.B. Yunusovning magistrlik dissertatsiyasidan ilova)

Samarqand shahrida mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasini loyihalash metodologiyasini takomillashtirishga yangicha yondashish, obyektlarning iqtisodiy omillari yechimiga bog'liq bo'lgan muammolarning qanchalik to'g'ri aniqlanishi bilan bog'liq. Shu mazmunda aytib o'tish lozimki, quyidagilar shaharsozlik metodologiyasini takomillashtirish vositasi bo'lishi kerak:

- mahalla markazini qurish uchun tegishli maydon tanlash;
- hududda tashkil topgan landshaftdan samarali foydalanish;
- mahalla markazlarini jipslashtirish va ko'paytirish nuqtai nazaridan ko'proq ma'qul yechimlarni tanlash.

Tanlangan maydon talab qilinayotgan mikroiklim yaratishga imkon beruvchi, hududning yetarlicha aerasiyasi, inshootlarni quyosh nuridan saqlash qulayliklari bo'lgan hududda joylashishi kerak. Odatda mahalla markazlari uchun baland relyefli joylar tanlanadi. Agar bunday joylar bo'lmasa, ularni sun'iy yo'l bilan yaratish talab qilinadi. Bu bir yo'la mahalla markazining umumiy qurilishda dominantligini belgilaydi. Mahalla markazini ko'kalamzorlashgan va suv havzalari mavjud yerlarda joylashtirish nafaqat mikroiklimni yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek kichik mahalla markazlari va butun shaharsozlik muhitida arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyaning asosiy vositasi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan mahalla markazi inshootlarini jipslashtirish va ko'paytirishga yangicha yondoshishlar qo'shimcha qayta loyihaviy izlanishlarsiz shaharsozlik masalalarinining yuqori darajadagi yechimiga olib keladi. Bu tarixiy mahalla markazlari inshootlarni jipslashtirish bilan bevosita bog'liq funksional tashkillashtirishning eng maqbul shakllari, shaharsozlik yechiminin an'anaviy uslublariga taqaladi.

Taklif qilinayotgan birinchi variant o'zgartirishlarsiz an'anaviy markazlarda qo'llanishi mumkin, boisi u markaz inshootlarining jipslashtirilishiga taqaladi. Bu yerda har bir xizmat elementi o'zaro izolyasiyalashgan tashkilotlar toifasiga ko'ra, alohida inshoot sifatida joylashtiriladi. Bunday holat mahalla markazini bosqichma-bosqich ierarxik shakllantirishda obyektlarni mikroansambl toifasiga qo'shishi mumkin. U o'zida kundalik xizmat elementlarini mujassamlashtirishi mumkin.

Taklif qilinayotgan ikkinchi va uchinchi variantlar yordamida mahalla markazining funksional "hajmi" masalasini o'zaro uzviy holda yechish mumkin. Bu yerda mahalla markazi yirikligi hisobiga "hajmini" kengaytirishning ulkan imkoniyatlari, ijtimoiy-jamoat va maishiy sohaning shakl va talablariga javob beradigan, hosil bo'lgan an'anaviy xizmat ko'rsatish elementlaridan foydalanish yuzaga keladi. Taklif qilinayotgan variantda ba'zi idoralarning qo'shilish va aralashishi hisobiga jipslashtirish mumkin. Bunda, birinchi holatda inshootlar hosil bo'lgan bir jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi, ikkinchi holatda bir necha jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi nazarda tutiladi.

Taklif qilinayotgan chizmada mahalla markazi inshootlarining ham zaruriy, ham imkon qadar jipslashtirish prinsipi masalasi ko'rib chiqiladi. Bu chizma yuqorida keltirilgan barcha varianlar uchun yagona

xarakterdagi inshootlarni belgilaydi. Taklif qilinayotgan prinsiplar shahar hududidan oqilona foydalanish, uning asosida tezkorlikni oshirish, eng muhimi mahalla markazi xizmat ko'rsatish hajmini oshiradi, bu o'z navbatida mahalla markazi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshiradi, demak, ilmiy izlanish o'z maqsadining yechimini topadi.

Mahalla markazlari rekonstruksiya va yangi loyihalari uchun ilmiy tadqiqot natijasida taklif qilinayotgan prinsip va tavsiyalar chizma va jadvallar ko'rinishidagi taklif va tavsiyalar yagona umumlashgan nazariy modelda jamlangan. Model zamonaviy mahalla markazini arxitekturaviy-rejaviy va funksional tashkillashtirish barcha turlarini chetlab o'tmaydi. Jamiyat rivojida ularni tashkillashtirishning yangi shakllari vujudga keladi. Ammo, barcha an'anaviy ijtimoiy, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq omillar hayot muhitining barcha o'zgarishlariga qaramasdan shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. Bularning barchasi ko'p asrlar davomida O'zbekiston zaminida jamlangan va mahalla jamoaviy markazlari arxitekturasini shakllantirishda asosiy arxitekturaviy-funksional milliy qadriyatlar hisoblangan.

3.2 Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me'moriy-landshaft kompozitsiyasini muvofiqlashtirish tamoyillari

Mahalla markazi strukturasini shakllantirishning navbatdagi talabi uning arxitekturaviy-landshaft kompozitsiyasini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu bevosita obyektning hajmiy-rejaviy muhitining shakllanishi bilan bog'liq.

Mahalla markazining hajmiy-rejaviy yechimi ilmiy tadqiqotda aniqlangan arxitekturaviy-rejaviy (yopiq, yarim ochiq va ochiq) va me'moriy-landshaft turlarining fazoviy-kompozitsion sifatlarini "oddiy" va "murakkab" – tarixiy an'analarning davomi sifatida fazoviy kompozitsiya prinsiplaridan foydalanishni taqazo etadi. Buning har biri u yoki bu turdagi mahalla markazlarining talablariga javob berishiga qarab foydalaniladi. "Oddiy" prinsip bu o'zida jamoat piyodalar yo'laklarini aks ettiruvchi asosiy yagona rejaviy muhit atrofida inshootlarni guruhlashtirishdan iboratdir. Bunday prinsip asosida yopiq yoki yarim ochiq mahalla markazlari tashkil qilinishi mumkin. "Murakkab" tizimli ochiq turdagi mahalla markazlari uchun ikki yoki undan ortiq muhitda

inshootlarni guruhlashtiradi va har biriga alohida jamoat piyodalar yo'laklari tashkillashtiriladi. Bunday hollarda jamoat piyodalar yo'laklarini ko'pincha ko'kalamzorlashtirish elementlari va suvli manzaraviy elementlar bilan o'zaro bog'lanadi. Bunda arxitekturaviy-kompozitsion yechim bu elementlarni ko'rsatishga xizmat qilishi kerak. Turar-joy maskanlari muhitidan foydalanish prinsiplari ham arxitekturaviy kompozitsiya masalalari yechimiga kiradi.

Mahalla markazi arxitekturaviy-kompozitsion yechimida jamoat piyodalar yo'laklari maydonlariga mo'ljallangan obyektlarda dekorativ to'shamalardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Bu ushbu muhitning inson ixtiyoriga topshirilganidan dalolat beradi. To'shama (yo'lak yoki maydonlar yopmalari) – o'z o'rnida bir axborot. U kompozitsiya fonida asosiy o'rinni: ko'chaning kompozision o'qini yoki maydonning fokus nuqtasini belgilaydi. Uning yordamida biz mahalla markazida bosh inshootining alohida ahamiyatini, uning salobati yoki aksincha, ikkinchi darajaliligini aniqlash mumkin (45, s. 53-54; 106, c. 9). Tarixiy malakalar shuni ko'rsatdiki, yopmalar sifatida an'anaviy terish usullaridan foydalangan holda pishgan g'ishtdan foydalanish ekologik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mahalla markazi hovli muhitida mikroiklimni tashkillashtirish talablariga javob beradigan bunday usullar, ular orasidagi choklarni saqlash, namlikning yaxshi filtrasiyasini va yerni yumshatishni ta'minlaydi.

Zamonaviy mahalla markazining arxitekturaviy-kompozitsion yechimini qayta yaratishning ikki yo'li mavjud: birinchidan, mahalla markazining tarixan hosil bo'lgan hajmiy-fazoviy karkaslari; ikkinchidan, an'anaviy arxitekturaviy-badiiy va landshaft tashkillashtirish.

Shaharsozlik-landshaft yechimida mahalla markazlarini tiklash va rekonstruksiya qilish ishlari ularning funksional xizmat doiralari rivojlanishini boshqarish bilan bog'liq. Shaharning tarixiy qismidagi rejabiy yechimlarda mahalla markazining bir maromda bosqichma-bosqich ierarxik tizimda rivojlanganligida maqsadli foydalangan holda mahalla markazining xizmat ko'rsatish va shaharsozlikdagi rivojini ko'zda tutish zarur. Bunday struktura o'zida ikki xil mahalla markazini mujassam qilishi mumkin: kichik mahalla markazi – "mikro" va kattasi "makro", bu holatlar ilmiy tadqiqot natijalarida aniqlangan funksional vazifalardan kelib chiqib, bir maromda oqilona rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nomenklaturaviy elementlarni

quyidagicha klassifikasiyalash maqsadga muvofiq: aholiga kundalik va davriy xizmat ko'rsatish turlarini ajratish. Ko'rinib turibdiki, kundalik xizmat ko'rsatish elementlari mikro mahalla markazlarida, kundalik va davriy xizmat ko'rsatish esa makro mahalla markazlarida mujassam bo'ladi.

3.3 Samarqand eski shahar qismida kam qavatli turar-joylar jamoaviy muhitini me'moriy-landshaft muhitining zamonaviy ilmiy-loyihaviy landshaft yechimi bo'yicha takliflar

Respublikamizda oxirgi paytlarda arxitektura va shaharsozlikka katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, shaharlarning rekonstruksiya, tarixiy va eski shahar qismlarini qayta tiklash masalalari Respublika rahbariyatining diqqat markazida turibdi. Respublika Prezidentining 2012 yil 12 martda qabul qilingan "Toshkent shahri Eski shahar qismini shaharsozlik rivojlantirish va obodonlashtirish Dasturini ishlab chiqish" to'g'risidagi R-3806 sonli farmoyishi nafaqat Toshkent shahri, balki Samarqand eski shahar qismi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu farmoyish asosida Samarqand arxitektura va shaharsozlik bosh boshqarmasi, Toshkentboshplan LITI Samarqand filiali, O'zbekiston Me'morlar uyushmasi qoshidagi ustaxona, SamDAQU arxitektura fakulteti kabi tashkilot va muassasalar ushbu dolzarb muammoni ishlab chiqish ustida ish olib bormoqdalar.

O'zbekistonda 17 ta tarixiy shahar mavjud bo'lib, shulardan Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari eski shahar qismlari va ulardagi tarixiy obidalar YuNESKO ro'yxatidan joy olgan. Shu vaqtgacha tarixiy shaharlarning eski shahar qismlarini qayta tiklash ishlari faqatgina donabay tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash bilan cheklanib kelgan. Samarqand eski shahar qismini qayta tiklash muammosini hal etish Respublikamizning boshqa tarixiy shaharlari eski shahar qismlarini qayta tiklash ishlarining jonlanishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalari, shu jumladan O'zbekistonda XX asr boshlari va o'rtalaridagi shaharsozlik va landshaft arxitekturasining shakllanishi va uning g'oyaviy yo'nalishini belgilashda sobiq Sovet hukumatining 1935 yilda qabul qilingan "Moskva shahrini qayta qurishning bosh rejayi" haqidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, Markaziy Osiyo Respublikalarining barchasi 1924 yildan boshlab Sobiq SSSR davlati tarkibiga kiritilgan edi. Shuning uchun ham

Moskva shahrini qayta qurish va rivojlantirish loyilasida ko'rsatilgan aksariyat me'moriy va shaharsozlik tamoyillari Markaziy Osiy Respublikalarining poytaxtlari - Toshkent, Samarqand, Dushanbe, Olmota, Ashxobod, Bishkek shaharlarining ham bosh rejalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash zarurki, ushbu shaharlarning bosh rejalarini loyihalashda mahalliy shaharsozlar bilan bir qatorda Moskva va Leningradlik me'morlar ham faol qatnashdilar. Bu loyihalarda qaralgan masalalar nafaqat rejabiy, texnikaviy, ekologik va transport muammolariga, balki ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasini va bog'-park san'atiga ham aloqador edi. Jumladan, dastlab 1924-1931 yillarda, so'ngra 1933-1937 yillarda ishlab chiqilgan Toshkent shahrini qayta rejalashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihalarida "eski" shahar bilan "yangi" shaharni qo'shib, yaxlit bir shaharsozlik organizmini vujudga keltirish, yangi turar-joy hududlari va shahar markazini yangitdan tashkil etish, transport magistralarini o'tkazish, bog'-parklar, xiyobonlar bunyod etish, shahar hududidan o'tuvchi mavjud suv havzalaridan foydalanib, ularning sohillarida ko'kalamzor istirohat maskanlarini tashkil etish ko'zda tutildi.

1981 yilda Samarqand shahri markazining batafsil rejabiy loyilasi ishlanib, unda shahar markazini, ayniqsa uning markaziy xiyobonini janub tomonga to Lolazor mavzesigacha kengaytirish ko'zda tutildi. Loyihada bog'-park san'ati va landshaft obyektlarining uzluksiz yaxlit tizimini yaratish va ularning mavqeini me'moriy obyektlarga tenglashtirish g'oyasi ilgari surildi.

Shaharda landshaft arxitekturasining tarixiy shaharlarga xos juz'iy obyektlari mavjud. Ulardan biri dastlab Abramov, so'ngra M. Gorkiy, hozir esa "Universitet xiyoboni" deb nomlanuvchi bulvardir. U 1870 yillarda bunyod etilgan. Xiyobonning ayrim joylariga toshdan ishlangan baralyef haykallar o'rnatilgan. Bulvarning bir tomonida Alisher Navoiyning tik turgan haykali va uning atrofidagi gulzor, ikkinchi tomonda esa Amir Temur siymosi gavdalangan me'moriy majmua joylashtirildi. Ushbu majmuadan shimol tomonda Hamid Olimjon nomidagi teatr binosi oldida katta skver tashkil etilib, undagi xiyobon va gulzorlar aro o'ziga xos pog'onali otma favvoralar ansambli ishlangan. Xuddi shunday zamonaviy otma favvoralar va chaman-gulzorlar ushbu skver va bulvarga yaqin joylashgan Afrosiyob mehmonxonasi, Amir Temur va Ruhobod maqbara majmualari qoshida va ularga boradigan yo'llar uzra ham tashkil etilgan.

Samarqanddagi Registon me'moriy ansamblining maydonini qayta tiklash loyihasiga ko'ra (1968 yil) ansambl atrofidagi sobiq ittifoq davrida shakllangan jamoat binolari buzib tashlanib, ularning o'rniga bog'-park hududi va gulzorlar vujudga keltirildi. Biroq, bu harakat Registon ansambliga ijobiy ta'sir ko'rsatmadi. Ulug'vor ansambl yangi yaratilgan keng muhitda o'zining asl masshtabini yo'qotib, muzeyga qo'yilgan sun'iy eksponatga o'xshab qoldi, negaki u atrofida o'ziga "qovdosh" bo'lgan tarixiy muhit ko'lami va unga mos tushgan handasaviy uyg'unlikdan judo bo'ldi.

Samarqandning yangi shahar markazida vujudga kelgan keng ma'muriy maydon o'ziga ko'ra behad yirik hisoblanib, uning landshaft yechimi takomiliga yetkazilmagan. Aksariyat qismiga asfalt beton, qolganiga yirik beton plitalar va tosh to'shalgan katta keng ochiq maydon yozning jazirama issiq kunlari yanada isib, qishda esa sovub ketadi. Maydon iqlimini muvofiqlashtirish va maydonning me'moriy-landshaft yechimini yaxshilash maqsadida bu yerda "Favvoralar bog'i" bunyod etilmoqda. Bundan tashqari vazifasidan qat'iy nazar maydonda yopiq yashil muhit hajmini oshirish, uni an'anaviy chorbog' va xiyobon uslubida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Eski shahar qismini qayta tiklashning quyidagi muammolarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- Transport muammolari – magistral ko'chalarni o'tkazish, mahalliy yo'l, tor ko'chalar tizimini tartibga solish, shaxsiy mashinalarni saqlash;

- Injener – texnik infrastruktura muammolari asosan kanalizasiya bilan bog'liq;

- Jamoat xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish;

- Uy-joylarni qayta tiklash;

- Tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash;

- Landshaft ekologik: irrigasiya tizimini jamoat binolari oldidagi ko'kalamzor hududlarni qayta tiklash.

Yuqoridagi muammolarni hal etish bo'yicha quyidagilarni taklif etish mumkin.

Asosiy g'oya shundan iboratki, eski shahar qismi shaharsozlik yodgorligi deb hisoblanishi lozim. Eski shahar aholisi to'laqonli hayot kechirishi kerak: uy-joylar tarixiy ko'rinishga ega bo'lgani holda zamonaviy injenerlik kommunikasiyalari bilan ta'minlanishi madaniy-

maishiy xizmat ko'rsatish, transport xizmati kabilar bilan qamrab olinishi lozim.

Shahar ahamiyatidagi magistral ko'cha eski shaharning yer ostidan o'tkaziladi. Hozirgi mavjud Toshkent, Registon, Penjikent va So'zangaron ko'chalari esa tuman ahamiyatidagi ko'chalar vazifasini o'taydilar. Mahalliy ko'chalar va tor ko'chalar yengil mashina o'tadigan qilib tartibga solinadi.

Eski shahar qismida elektr gaz ta'minoti, vodoprovod to'liq o'tkazilgan, telefon aloqasi mavjud, eski shaharning tarkibiy ko'rinishini saqlash uchun faqat kommunikasiyalarni yer ostidan o'tkazish lozim. Kanalizatsiya bilan ta'minlanganlik 60% atrofida, bu masalani ham hal qilish texnik jihatdan muammo tug'dirmaydi. Umuman olganda, zamonaviy kommunikasiyalar bilan ta'minlash muammosini to'liq hal etish mumkin.

Jamoat xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish uchun tarixan mavjud bo'lgan guzarlar va mahalla markazlarini qayta tiklash, borlarini jonlantirish zarur.

Mavjud muammolar ichida eng muhimi uy-joylarni qayta tiklash masalasidir. Eski shahardagi uy-joylarning konstruksiyasi asosan yog'och sinch va paxsa devordan iborat bo'lib, ular kapital konstruksiya emas deb hisoblab kelingan. Devorlar va tomlar somon suvoq bilan suvalgan. Hozirga kelib hatto rivojlangan mamlakatlarda loy-tuproq materialining ekologik talablarga javob berishi, issiq-sovuqni yaxshi ushlashi, arzonligi kabi xislatlari uchun tan olinib, qurilishda keng qo'llanilmoqda (zamonaviy texnologiyalar asosida). Samarqand shahrida qurilgan ko'plab bino va kichik tumanlar muallifi A. Kosinskiyning fikricha "Ma'lum bo'ldiki, an'anaviy somon-tuproqli turar joy muhiti yo'q qilinishi va unutishga loyiq bo'lgan antisaniatar tartibsizlik emas, balki ko'p asrlik tajribani o'ziga qamrab olgan tirik organizmdir, u insonga O'rta Osiyoning ekstremal iqlimiy sharoitlarida normal hayot kechirish va mehnat qilishga imkon beradi". Umuman olganda, eski shahardagi uy-joylarni 3 ta kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash boshqarmasi ro'yxatida bo'lgan, tarixiy va me'moriy qimmatga ega uy-joylar;
2. Yaxshi saqlangan, lekin joriy ta'mirga muhtoj uy-joylar.
3. Tarixiy va madaniy qimmatga ega bo'lmagan, yaxshi saqlanmagan yoki avariya holatidagi uy-joylar.

Birinchi tipdagi uy-joylar holatiga qarab o'lcham va chizmalar bo'yicha qayta tiklanadi yoki joriy ta'mir qilinadi. Ikkinchi tip uy-joylar esa joriy ta'mir qilinadi. Uchinchi tip uy-joylar buzib tashlanib, ularning maydon chegarasi va oldingi qavati saqlangan holda yangi uy-joylar quriladi. Bunga alternativ bo'lib bo'shagan maydondan mahalla guzarini kengaytirish yoki dam olish uchun kichik ko'kalamzorlar tashkil etish uchun foydalanish mumkin. Yangi uy-joylar qurilishi atrofdagi yodgorliklar, uy-joylarning xarakteri va masshtabini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Uy-joylarni qayta tiklashda yana shuni hisobga olmoq kerakki, ilgari 2-qavati uylarning ko'chaga qaragan 1-qavati hunarmandlar ustaxonasi yoki do'kon bo'lgan. Mahallalar hunarmandlarning turiga qarab atalgan. Masalan, degrezchilar, kosiblar, qandolatpazlar va hokazo. Eski shaharni qayta tiklash hunarmandchilik va kasanachilikni ham tiklanishiga va demak, yangi ish joylarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Eski shaharda tarixiy va madaniy yodgorliklar juda ko'p. Ishni ularning to'liq ro'yhatini tuzishdan va atrofidagi qurilmalarga mos holda ta'mirlab, zamonaviy funksiya berishdan boshlash kerak. Ayniqsa, misol qilib poytaxtimiz Toshkent shahrining 12 ta darvozasi o'rmilarini belgilab, simvolik kichik shakllar, bino yoki qurilmalar orqali ifodalansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Eski shahar oldingi "Aroq zavodi" hududida joylashgan "Chashma" bulog'i bilan chambarchas bog'liq. Ilgari undan ko'plab ariq va ariqchalar tarqalib, ekinlarni sug'orishga, atrof-muhit havosini sovutishga xizmat qilgan. Chashma bulog'ining bo'yi ikkala tarafdin ko'kalamzor, ozoda joy bo'lib, aholining dam olishiga, shifobaxsh suvidan bahramand bo'lishga xizmat qilgan. Hozirda bu buloqning bo'yida har xil imoratlar, qurilmalar bilan to'silgan bo'lib, estetik jihatdan noqulay ko'rinishni olgan. Buloqning bo'yini turli xil qurilmalardan tozalab, ko'kalamzorlashtirib, obodonlashtirib, aholi dam oladigan so'lim oromgohga aylantirish maqsadga muvofiq ish bo'lar edi. Mahalla markazlarida ham kichik bog'lar tashkil etilsa, bu bog'lar o'zaro va Chashma bulog'i atrofi ko'kalamzori bilan bog'lansa - bu ham eski shahar muhitini tiklashga katta hissa bo'lib qo'shilar edi.

III-bob xulosasi

1. Tarixan tashkil topgan mahalla markazlarida an'anaviy yashash muhiti qulay landshaft va mikroiklim yaratishning asosiy

komponenti sifatida xizmat qiladi. Bu vazifa bir vaqtning o'zida mahalla markazlarini tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun mahalla jamoaviy markazlarini regenerasiyalash jarayonida mikroiqlim yaratishning an'anaviy usullari qo'llaniladi. Tarixiy mahalla markazlari mikroiqlim ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori bo'lishiga qaramay, ularning ichida kunduz kunlari qizib ketishga qarshi usuldan foydalanilganda bundanda yaxshi natijalarga erishildi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, qulay arxitekturaviy iqlimni yaratuvchi vositalardan foydalanish samaradorligiga nisbatan mahalla markazlari muhitining o'lchamlari to'g'ri proporsional kengayish yoki qisqarishga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, agar mahalla markazi hovlisi muhitning ochiqlikligi kengaysa, qulay muhitni yaratuvchi vositalarning samaradorligi ham oshadi. Bunga asosan quyidagicha erishiladi:

– mahalla markazlari hovlisida shaxtasimon xususiyatga ega bo'lgan xonalarni yorug'lantirishning minimal yuzasini hamda berk va yarim berk panjaralar qo'llash;

– ochiq va yarim ochiq xonalardan – ayvon, shiypn, yashil xonalardan foydalanish;

– soyalar hosil qilish – dolon va shiypn (pergola, voish, ko'shk);

– landshaft an'anaviy ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish usullarini qo'llash: ariqlarda suv oqimini ta'minlash, gul va butalar ekish; hovuzlar va ularning atrofida chuqur tomir yoyadigan daraxtlar (chinor, qayrag'och, tut) o'tqazish; sachratib sug'orishli gulxonalar va boshqalar;

– tuproqning zahdagi qatlamidan foydalanib mahalla markazi binolari yoki hovlisini gruntning pastki qismida joylashtirish.

1. Hozirgi zamon amaliyotida mahallalar markazlarini shakllantirishni o'rganishda har xil turdagi salbiy tendensiyalar va shaharsozlik arxitekturasi talablaridan chekinish umumiy metodologik qoidalarga rioya qilmaslikdan dalolat beradi. Buning oldini olish maqsadida rekonstruksiya ishlari va loyihalash jarayonini butunlay yangicha shakllantirish lozim. Respublika arxitekturasida bu masala muhokama bosqichida turibdi. Vaziyatni takomillashtirishning yangi takliflari esa mahalla markazlarining shaharsozlik arxitekturasida modellashtirish tizimining yangi yo'llarini izlash bilan bog'liq. Buning ayni muddaosi esa zamonaviy informasion-qidiruv tizimlari va loyihalashning kompyuterlashgan metodlari va vositalaridan foydalanish deb hisoblaymiz.

2. Qulay mikroiklim muhitini yaratishning tarixiy tajribasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, "magok" tipidagi qadimgi kichik me'moriy ansambllar (jamoaviy-diniy komplekslar)ning ahamiyatini ta'kidlash lozim. "Magok"dagi harorat va namlik rejimlarini maxsus o'lchash va ularni yerning umumiy yuzasida mikroiklimiy aniqlash ma'lumotlari bilan solishtirganda "magok" foydasiga katta farq borligi qayd etildi. Ya'ni, magokdagi mikroiklimiy sharoitlar qulaylik talablariga maksimal darajada javob beradi. Tadqiq etilayotgan mahalla markazlari va ularning ayrim binolarini yer ostida chuqurroq joylashtirishning me'moriy-iqlimiy muhitni yaratish va yaxshilash maqsadida qilinganligini isbotlamoqda.

XULOSA

“Landshaftlar arxitekturası” mutaxassisligi muammolaridan kelib chiqqan holda “O‘zbekiston bog‘-parklarini modernizatsiyalash amaliyotini tahlil qilish va loyihaviy takliflar berish” mavzusidagi tadqiqotlarimiz va ilmiy izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mavjud muammolar ichida eng muhimi uy-joylarni qayta tiklash masalasidir. Eski shahardagi uy-joylarning konstruksiyasi asosan yog‘och sinch va paxsa devordan iborat bo‘lib, ular kapital konstruksiya emas deb hisoblab kelingan. Devorlar va tomlar somon suvoq bilan suvalgan. Hozirga kelib hatto rivojlangan mamlakatlarda loy-tuproq materialining ekologik talablarga javob berishi, issiq-sovuqni yaxshi ushlashi, arzonligi kabi xislatlari uchun tan olinib, qurilishda keng qo‘llanilmoqda (zamonaviy texnologiyalar asosida). Samarqand shahrida qurilgan ko‘plab bino va kichik tumanlar muallifi A.Kosinskiyning fikricha “Ma‘lum bo‘ldiki, an‘anaviy somon-tuproqli turar joy muhiti yo‘q qilinishi va unutishga loyiq bo‘lgan antisanitar tartibsizlik emas, balki ko‘p asrlik tajribani o‘ziga qamrab olgan tirik organizmdir, u insonga O‘rta Osiyoning ekstremal iqlimiy sharoitlarida normal hayot kechirish va mehnat qilishga imkon beradi”. Umuman olganda, eski shahardagi uy-joylarni 3 ta kategoriyaga bo‘lish mumkin:

- Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash boshqarmasi ro‘yhatida bo‘lgan, tarixiy va me‘moriy qimmatga ega uy-joylar;

- Yaxshi saqlangan, lekin joriy ta‘mirga muhtoj uy-joylar.

- Tarixiy va madaniy qimmatga ega bo‘lmagan, yaxshi saqlanmagan yoki avariya holatidagi uy-joylar.

2. Birinchi tip uy-joylar holatiga qarab o‘lcham va chizmalar bo‘yicha qayta tiklanadi yoki joriy ta‘mir qilinadi. Ikkinchi tip uy-joylar esa joriy ta‘mir qilinadi. Uchinchi tip uy-joylar buzib tashlanib, ularning maydon chegarasi va oldingi qavati saqlangan holda yangi uy-joylar quriladi. Bunga alternativ bo‘lib bo‘shagan maydondan mahalla guzarini kengaytirish yoki dam olish uchun kichik ko‘kalamzorlar tashkil etish uchun foydalanish mumkin. Yangi uy-joylar qurilishi atrofda yodgorliklar, uy-joylarning xarakteri va masshtabini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Uy-joylarni qayta tiklashda yana shuni hisobga olmoq kerakki, ilgari 2-qavati uylarning ko‘chaga qaragan 1-qavati hunarmandlar ustaxonasi yoki do‘kon bo‘lgan. Mahallalar

hunarmandlarning turiga qarab atalgan. Masalan, degrezchilar, kosiblar, qandolatpazlar va hokazo. Eski shaharni qayta tiklash hunarmandchilik va kasanachilikni ham tiklanishiga va demak, yangi ish joylarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

3. Eski shaharda tarixiy va madaniy yodgorliklar juda ko'p. Ishni ularning to'liq ro'yhatini tuzishdan va atrofidagi qurilmalarga mos holda ta'mirlab, zamonaviy funksiya berishdan boshlash kerak. Ayniqsa, misol qilib poytaxtimiz Toshkent shahrining 12 ta darvozasi o'rinlarini belgilab, simbolik kichik shakllar, bino yoki qurilmalar orqali ifodalansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. O'zbekistonni dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi, turistlar aqlini shoshtiruvchi, ularni xis-hayajonlarga soluvchi go'zal tarixiy shaharlarimiz, arxitektura yodgorliklari va komplekslari borki, bugungi kunda ularning mavqei dunyoga mashhurdir. U qatoriga Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Toshkent, Qo'qon, Nurota kabi shaharlar kiradi.

Bunday shaharlarimizning mavqei, ayniqsa, Mustaqilligimiz shukuhining dunyoga taralayotgan, O'zbekiston degan go'zal diyorni jahon taniyotgan va unga olam xalqining, nafaqat sayyohlarning, balki ishbilarmonlarning ham intilayotgan bir davrida yanada oshib borishi shubhasizdir.

Bunday tarixiy shaharlarning markazlarida bizgacha saqlangan dunyoga mashhur me'moriy komplekslar, tarixiy ark-qal'alar, ansambllar, piyoda ko'chalar, savdo inshootlari, minoralar, arxitektura yodgorliklaridan tashqari an'anaviy turar-joylar, mahalla va guzarlar ham borki, ular o'sha tarixiy shaharlar me'moriy muhitining ajralmas va chambarchas tarkibiy qismlaridir. Ayrim tarixiy shaharlar markaziy qismi bilan yonma-yon va tutash joylashgan bu an'anaviy tarixiy turar-joylar binolari ushbu shaharlar me'moriy shakllari va muhitining uyg'unlashgan strukturaviy tizimini tashkil qiladi.

Biroq ming afsuski, hayot garchi, tezkor taraqqiyot, xalqaro turistik ehtiyojlar va zamonaviy talablar bunday an'anaviy va tarixiy turar-joylarning saqlanib qolishiga xavf solmoqda. Ularning o'rniga tarixiy shaharlarimiz muhitiga mos kelmaydigan yangi binolar, savdo va boshqa maishiy xizmatlar ko'rsatish binolari qurilmoqda. Bunday holatlarni Samarqand, Shaxrisabz, Qo'qon va boshqa tarixiy shaharlarda uchratish mumkin. Jumladan, Samarqand shahridagi mashhur Registon maydoni atrofidagi tarixiy turar-joylar o'rnini 4 qavatlik o'rta maktab va

zamonaviy ko'p seksiyali baland uylar egallagan. Ko'pgina shaharlarning bosh tarxlarida an'anaviy turar-joy hududlarining sezilarli qismini ko'p qavatli binolar bilan almashtirish ko'zda tutilgan. Bunday shaharsozlik dissonanslari va noxushliklari boshqa tarixiy shaharlarga ham uchraydi.

O'zbekistonning boy tarixiy me'moriy-madaniy merosi va shaharlariga dunyoviy qiziqishning oshib borayotgan bir davrida bunday shaharsozlik xatoliklarining bartaraf etilishi zarur.

Muammoni yechishning eng ishonchli yo'nalishlaridan biri – bu ushbu tarixiy shaharlar markazlari atrofidagi zamonaviy, tarixiy muhit talablariga javob bermaydigan imoratlar o'rniga an'anaviy turar-joylar arxitekturasini va tarixiy shaharlar muhitiga mos keluvchi yangi turar-joylarni tiklash va joylashtirishdir.

5. Ma'lumki, O'rta Osiyoning tarixiy shaharlarida bizgacha ko'plab mahallalar va ularning markazlarining guzarlar saqlanib qolgan. Bunday mahallalar hududidan tor ko'chalar o'tkazilib, ular odatda, mahalla markazlari guzarlarga kelib ulangan. Tor ko'chalarning boshi esa mahallalarni bir-biridan ajratib turuvchi shahar magistral ko'chalariga borib tutashgan. Ana shunday mahalla va guzarlar, tor ko'chalar va magistrallar bugungi kunda O'zbekistonning deyarli barcha tarixiy shaharlari: Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qo'qon, Namangan va boshqa shaharlarda mavjuddir.

Tarixiy mahallalardagi ko'kalamlar asosan guzarlarda joylashgan bo'lib, odatda ular guzar imoratlarining turkumini tashkil qiluvchi guzar hovuzlarining atrofida, guzar masjidi va maktabining hovlisida yoki atroflarida shakllantirilgan. Bunday ko'kalamlar odatda hovuzning suvi bilan ta'minlovchi ariqlar bo'ylab qatorlab ekilgan. Masjid oldi, hovlisi, maktabda manzarali va mevali daraxtlardan tashqari atirgullarning bir nechta navlari hamda gultojixuroz, savsan, hamisha bahor, rayhon va boshqa guli uzoq gullovchi o'simliklar ekilgan. Manzarali daraxtlarga terak, tol, chinor, qayrag'och, majnuntollar kirsas, mevali daraxtlarga tut, yong'oq, olxo'ri, nok, anor, anjir, bodom va boshqalar kirgan.

Guzar hovuzining atrofida daraxtlar shunday ekilganki, ularning soyasi nafaqat hovuz atrofini, balki hovuz yuzini ham o'z soyasi bilan yopib turgan. Bu uslub hovuz suvining jazirama quyosh nuridan ko'p bug'lanib ketmasligi, hovuzga chang tushmasligi va uning doim muzdek sovuq turishini ta'minlagan. Natijada hovuz atrofida qulay va shinam mikroiklim, yengil shabada bo'lishligi ta'minlangan. Hovuz atrofiga

ekilgan daraxtlarning barglari tushib hovuz suvini ifloslanmasligi talab etilgan.

Magistral ko'chalar chetidan o'tkazilgan ariqlar bo'ylab ham ko'chalarni soya bilan ta'minlovchi va chang to'zondan saqlovchi manzarali daraxtlar ekilgan.

Hozirgi vaqtda tarixiy shaharlarimizdagi bu guzar va mahallalar muhiti qayta tiklanib, ularni zamonaviy texnik va estetik talablarga mos tarzda modernizatsiyalash loyihalari ishlanmoqda. Ana shunday loyihalarni ishlashda yuqorida aytib o'tilgan guzar va mahallalar hududini landshaft tashkillashtirish bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar e'tiborga olinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 19 avgust 223-sonli qarori. - Toshkent, 2013.
2. **Mirziyoyev Sh.M.** O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. T., O‘zbekiston, 2017. “Gazeta.uz”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori.

Manbalar:

5. **Т.Ф. Кадырова** «Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XX - начала XXI вв. (традиции и современность)» Ташкент 2007 г.
6. **Klavixo, Rui Gonsales de.** Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406 gg.). - M., 1990.
7. **Sagdullayev A.** Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O‘qituvchi, 1996. - 66 b.

Maxsus adabiyotlar:

8. **N.G. Maliskiy.** Toshkent mahalla va mavzelari, T., 1996.
9. Mahalla: o‘zini o‘zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me‘yoriy hujjatlar to‘plami), T., 1999.
10. **Davron Shorahmedov.** Toshkent mahallalari: an‘analar va zamonaviylik T., 2002.
11. **Maxmudov V.M., Inogomov B.I., Inogamov F.B.** Turar-joy binolarini rekonstruksiylash metodi va arxitekturaviy-loyihaviy yechimga ta‘sir etuvchi omillar.//“Zamonaviy arxitektura va innovasiyalar” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.:TAQI, 2012.
12. **Seyerev G.A.** Toshkent shahri strukturasi kam qavatli xususiy uylarning ahamiyati. “Zamonaviy arxitektura va innovasiyalar” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TAQI, 2012. 156-157 betlar.

13. **Fayzullayeva N.N.** Mustaqillik yillarida Buxoro eski shahar hududining tarixiy muhitini qayta tiklashda erishilgan yutuq va kamchiliklar.// O'zbekistonda shaharsozlik va landshaft arxitekturasini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2013. 53-56 betlar.
14. **Вергунов, А.П.** Ландшафтное проектирование: учеб. пособие для вузов Текст. / А. П. Вергунов, М. Ф. Денисов, С. С. Ожегов. М.: Высш. шк., 1991.
15. Всеобщая история архитектуры Текст. В 12 т. Т 12, кн.1 / под ред. Н. В. Баранова, Н. П. Былинкина, А. В. Иконникова, и др. М.: Изд-во лит. по стр-ву, 1975.
16. **Гидион З.** Пространство, время, архитектура Текст. / З. Гидион; сокр. пер. с нем. М. В. Леонене, И. ЖИ. Черня; науч. ред. и предисл. Д. Г. Копелянского. -М.: Стройиздат, 1973.
17. **Ефимов, А.В.** Дизайн архитектурной среды: учеб. для вузов Текст. / А. В. Ефимов [и др.]. – М.: Архитектура-С, 2006.
18. **Зайкова Е.Ю.** Ландшафтная организация коллективных пространств малоэтажной застройки. Ландшафтная индустрия г. Москвы Текст. / Е.Ю. Зайкова // Ландшафтная индустрия 2007: [материалы] междунар. конф. – СПб.: Статус-ПРО, 2007.
19. **Зайкова Е.Ю.** Альтернативный ландшафт в малоэтажной застройке Текст. / Е. Зайкова // Ландшафтная архитектура. Дизайн. – 2008.
20. **Зайкова Е.Ю.** Пространство для достойного образа жизни: природный каркас коллективного пространства как фактор повышения экологической устойчивости территории малоэтажной застройки / Е.Ю. Зайкова
21. **Малинова О.Б.** Малоэтажное расселение: зимой и летом, сельские и горожане Текст. / О. В. Малинова // ЗКОРЕАЛ. 2006.
22. **Микулина Е.М.** Использование исторических ландшафтов для отдыха Текст. / Е.М. Микулина, И.В. Барсова, В.В. Баулина. М.: Знание, 1975. -64с., 32 с. ил. - (Новое в жизни, науке, технике. Серия «Строительство и архитектура»).
23. **Нефедов В.А.** Ландшафтный дизайн и устойчивост среды Текст. / В. А. Нефёдов. СПб.: Полиграфист, 2002. - 295 е.: ил.
24. **Пастернак А.** Принципы формирования архитектурно-планировочных решений мало и средне-этажной жилой

- застройки, возводимой с участием потребителя Текст.: автореф. дис. . канд. архитектуры / А. Пастернак. – М.: МАРХИ, 1990. – 24 с.
25. **Смакула С.А.** Малоэтажное индивидуальное жилище в структуре города. С учётом образа жизни горожан Текст.: автореф. дис.канд. архитектуры / С. А. Смакула. М.: МАРХИ, 1996. - 23 с.
26. **Сторожев Н.Г.** Пространственное моделирование и дизайн среды жилых комплексов с малоэтажной застройкой Текст. / Н. Г. Сторожев
27. **Сторожев Н. Г.** Формирование предметно-пространственной среды малоэтажной застройки города Текст.: автореф. дис.канд. архитектуры / Н. Г. Сторожев. М.: МАРХИ, 1999. – 28 с.
28. **Сычева А.В.** Ландшафтная архитектура Текст.: учеб. пособие для вузов / А.В. Сычёва. 3-е изд., испр. - М.: Оникс, 2006. – 87с.: ил.
29. **Шимко В.Т.** Основы дизайна и средовое проектирование Текст.: учеб. пособие / В.Т. Шимко.— М.: Архитектура-С, 2007. – 160 с.: ил. 123.
30. **Шимко В.Т.** Типологические основы художественного проектирования архитектурной среды Текст.: учеб. пособие / В.Т. Шимко, А.А. Гаврилина. - М.: Архитектура-С, 2004. – 104 с.: ил.
31. **Щепетков Н. И.** Световой дизайн города Текст.: учеб. пособие / Н. И. Щепетков. -М.: Архитектура-С, 2006. – 320 с.: ил.
32. **Рахимов К.Д., Мохов А.И.** “Махаллинские ансамбли” (Проблемы формирования), Москва: “Сентр”, 1996, - 125 б.
33. **K.D Rahimov, A.S Uralov.** Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash / o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Sano-standart”, 2015. – 224 b.
34. **Yuldasheva M.K., Yunusova K.B.** Развитие архитектурно-ландшафтного пространства коллективного назначения в малоэтажной застройке (на примере старо-городской части г. Самарканда)// “Me'morchilik va qurilish muammolari” №1-sonli ilmiy-texnik jurnali, SamDAQI – 2013. – 27-29 b.
35. **Raximov K.Dj., Yunusova K.B., Karimov U.N., Urazov Sh.** Развитие градостроительной структуры и эволюционное формирование озелененных пространств в ней. “Iqtidorli yoshlar va ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish” yosh olimlar,

magistrant va talabalarning an'anaviy X respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 7-8 iyun 2013 y., 17-29 betlar

36. **Yunusova K.B., Karimova D. E.** Samarqand shahrida kam qavatli turar joylar tizimining mikroiklim muhitini tashkil etish usullari. "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integrasiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili" mavzusidagi XIV respublika ilmiy-amaliy konferensiya. I-Qism, 27 may 2017 y., 8-10 betlar.
37. **Yunusova K.B.** Tarixiy shahar markazidagi kam qavatli turar-joylar (mahalla) tizimining landshaft yechimlari. Vol. 02. Issue 04. "Ijtimoiy fanlarda innovatsiya". Aprel, 2022, O'zbekiston. 92-95 betlar. <http://www.sciencebox.uz> **ISSN: 2181-2594**

Xorijiy adabiyotlar:

38. **Robert Hillenbrand**, Islamic Architecture: Form, Function, and Meaning. Columbia University Press, AQSH, 1994
39. **Kagan Sacha**. Urban Sustainability through Environmental Design: Approaches to Time-People-Place Responsive Urban Spaces. Springer, Germaniya - 2010, 68-85
40. **Rabbat Nasser**. Urban Form and Meaning in the Islamic City. Harvard University Press, AQSH – 2005, 85-110
41. **Mumford Lewis**. The City in History: Its Origins, Its Transformations, and Its Prospects. Harcourt Brace Jovanovich, AQSH – 1961, 230-250
42. **Simonds John Ormsbee**. Landscape Architecture: A Manual of Environmental Planning and Design. McGraw-Hill, AQSH – 1983, 102-126

SAMARQANDNING ESKI SHAHAR QISMIDA KAM QAVATLI TURAR- JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY MUHITINI ME'MORIY-LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH



Monografiya

Yunusova Kamola Baxodirovna

**SAMARQANDNING ESKI SHAHAR
QISMIDA KAM QAVATLI TURAR-
JOYLAR (MAHALLA) JAMOAVIY
MUHITINI ME'MORIY-LANDSHAFT
TASHKILLASHTIRISH**

Subscribe to print 18/10/2025. Format 60×90/16.

Edition of 300 copies.

Printed by "iScience" Sp. z o. o.

Warsaw, Poland

08-444, str. Grzybowska, 87

info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>

Ushbu monografiyada O'zbekiston Respublikasi jumladan Samarqand shahridagi tarixiy mahallalar jamoaviy muhitini o'rganish va ularni me'moriy landshaft tashkillashtirish yo'llarini ilmiy tadqiq etish, tarixiy hududidagi mahalla markazlarining ilk shakllanishidan boshlab amalga oshirilgan me'morchilik va shaharsozlik, landshaft obyektlarini o'rganish, umumlashtirish asosida ularni loyihalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va loyihaviy takliflar berish haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.



ISBN 978-83-68188-25-7



9 788368 188257